

**ЛУЧШИЕ
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



международном научно-образовательном
электронном журнале

**ЧАСТЬ-21
ТОМ-8
05/2024**



OPEN  ACCESS



ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

международный научный электронный журнал

ЧАСТЬ-21 ТОМ-8

Май - 2024 год





PAST CHASTOTALI ELEKTROMAGNIT MAYDON VA FITOGARMONLARNING O'SIMLIKLARGA KOMBINATSION TA'SIRI

Mamatqulov Mirvoxid Mirzoxid o'g'li

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti, "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqaruv"
kafedrası "Axborot tizimlari va texnologiyalari" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabasi*

Anotatsiya: Elektrostimulyatsiya bilan urug'ga ishlov berishda optimal sharoitlar ta'minlanganda, urug'larning ekish uchun sifat darajasi ortishi (unish quvvatining ortishi), o'simlik rivojlanishi tezlashishi, tashqi muhitning noqulay omillariga qarshi chidamlilik darajasi ortishi qayd qilingan, bunda o'simlikning xosildorlik darajasi 5-20% gacha ortishi qayd qilingan. Bunda ishlov berish jarayonining samaradorligi bevosita ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, samaradorlik darajasi 0,50 dan 0,75 gacha oraliqda tebranishi kuzatiladi

Kalit so'zlar: Past chastota, elektromagnit maydoni, fitogormonlar, o'simliklarga kombinatsion ta'siri, optimal, tashqi muhit.

Annotation: When optimal conditions are provided for seed processing with electrostimulation, it is noted that the quality level of seeds for planting increases (increased germination capacity), plant development accelerates, and the level of resistance against unfavorable factors of the external environment increases, while the level of plant productivity An increase of 5-20% has been noted. In this case, the efficiency of the processing directly depends on many factors, and the efficiency level is observed to fluctuate between 0.50 and 0.75


Key words: Low frequency, electromagnetic field, phytohormones, combinatorial effects on plants, optimum, external environment.

Аннотация: При обеспечении оптимальных условий обработки семян электростимуляцией отмечается повышение уровня качества семян для посева (повышение всхожести), ускоряется развитие растений, повышается уровень устойчивости к неблагоприятным факторам внешней среды, при этом уровень продуктивности растений отмечен рост на 5-20%. При этом эффективность обработки напрямую зависит от многих факторов, причем наблюдается уровень эффективности, колеблющийся в пределах 0,50–0,75.

Ключевые слова: Низкая частота, электромагнитное поле, фитогормоны, комбинаторное воздействие на растения, оптимум, внешняя среда.



Электromagnit maydon — elektr zaryadlarning o‘zaro ta’siri bevosita amalga oshadigan fizik reallik; materiyaning alohida shakli. Elektr va magnit maydonlarning kuchlanganligi (induksiyasi) bilan ifodalanadi. J. Maksvell Elektromagnit maydon nazariyasini elektromagnit hodisalarning barcha asosiy qonuniyatlarini ifodalovchi bir necha tenglamalar sistemasi ko‘rinishida ifodalagan (1860). J. Maksvell nazariyasining asosida elektr va magnit maydonlarning o‘zaro uzviy bog‘lanishda ekanligini ifodalovchi ushbu 2 g‘oya yotadi: 1) vaqt davomida o‘zgaruvchi har qanday magnit maydon elektr maydonni yuzaga keltiradi va 2) vaqt davomida o‘zgaruvchi har qanday elektr maydon magnit maydonni yuzaga keltiradi. J. Maksvellning birinchi g‘oyasi to‘g‘riligini elektromagnit induksiya hodisasi tasdiqlaydi, ikkinchisini esa G. Gers elektromagnit to‘lqinlarni kashf qilishi bilan isbotladi. Maxsus shartsharoitlarda Elektromagnit maydon elektr maydon yoki magnit maydon ko‘rinishida mavjud bo‘lishi mumkin. Moddiy jismlar tarkib topgan atomlar teng miqdordagi musbat va manfiy elektr zaryadlarga ega. Atomdagi bu zaryadlarning Elektromagnit maydon orqali o‘zaro ta’sir qilishi har qanday holatdagi jism (gaz, suyuqlik, qattiq jism, plazma)ning xususiyatlarini belgilaydi. Elektromagnit o‘zaro ta’sir tabiatda mavjud uch xil fizik o‘zaro ta’sirlarning biri hisoblanadi.



Ikkita maydon ulangan (elektr maydoni (ko'k) va magnit maydon (qizil) vektorlari)

Zaryadlarning fazoda qanday taqsimlanganligi va qanday harakat qilishi ma'lum bo'lsa, bu zaryadlar hosil qilgan Elektromagnit maydon kattaliklarini aniqlash mumkin.

Elektromagnit maydon - maishiy elektr texnikalari, radio, uyali telefon, GPS navigator qurilmalari, yuqori elektr kuchlanish tarmoqlari, transformatorlar, uyali aloqa stansiyalari, simsiz Internet tarmog‘i va boshqa manbalar asosida yuzaga keladi. Shuningdek, sun‘iy yo‘ldosh orqali signal qabul qiluvchi antennalar ham elektromagnit maydon hosil qiluvchi manbalar ro‘yxati tarkibiga kiritiladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda bu sistema elektromagnit maydoni organizmda immun sistemasi funksiyasi buzilishiga olib kelishi, xotira buzilishi, ko‘payish organlari funksiyasi buzilishga olib kelishi mumkinligi tasdiqlangan. Yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari, uyali telefon aloqa stansiyalari antennalari, radioaloqa antennalari, maishiy turmushda



ishlatiluvchi elektr qurilmalar va asbob-uskunalar hosil qiluvchi elektromagnit nurlanish odam organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tasdiqlangan. Elektromagnit nurlanish qiymati 900 - 1800 MGsni tashkil qiluvchi uyali telefon operator stansiyasi antennalari uchun ruxsat etilgan normativ qiymatlar turli xil davlatlarda o'zaro farqlanadi. Masalan, bu qiymat AQSH da 100 mkV/sm² ni tashkil qilsa, Rossiya miqyosida 10 mkV/sm², Ukrainada esa - 2,5 mkVt/sm² belgilangan.

Fitogormonlar (fito... va gormonlar), o'stiruvchi moddalar — o'simliklarda qosil bo'lib, ularning o'sishi va meva hosil qilish jarayonlarini boshqarishda ishtirok etadigan yuqori fiziologik faol moddalar. O'simliklar hayvonlar kabi gormon ishlab chikaradigan maxsus sekretor organlariga ega emas. F.ga, odatda, auksinlar, gibberellinlar, sitokinlar (kinin)lar, fenoksiatsetat kislota hosilalari va boshqa kiradi. F. 3 ta umumiy xossaga ega: 1) o'simlik organlaridan biri (yosh barglar, kurtaklar, ildiz va novda uchlari)da sintezlanadi va boshqa joylarga tashilib, bu yerda usish va ontogenez jarayonlarini kuchaytiradi; 2) usimliklarda juda oz miqdorda sintezlanadi va ularning usimlik hayotidagi ishtiroki deyarli sezilmaydi; 3) boshqa metabolitlar (jumladan, vitaminlar)dan farkli ravishda o'simliklarda organlar shakllanishi jarayonini tezlashtiradi. Mas, gibberellinlar poya va mevaning o'sishini, auksinlar ildiz o'sishini, kininlar hujayraning bo'linish jarayonini kuchaytiradi. O'sish jarayonlarini sustlashtiradigan tabiiy o'sish ingibitorlari (mas, absiz kislota, etilen) alohida guruxlarni tashkil etadi (yana qarang O'sishni boshqaruvchi moddalar). MRI tizimi-bu yuqori aniqlikdagi tasvirni tashxislash uskunasi bo'lib, u o'rnatish muhitiga yuqori talablarni qo'yadi. NMR signali - juda zaif signal, tashqi aralashuvga sezgir. Natijada, MRT tizimlari tez-tez tashqi chastotali shovqinlarni tizimga kirishini izolyatsiya qilish uchun Faraday qafaslari bilan jihozlanishi kerak. Biroq, Faraday qafasi radiochastota diapazoni uchun yaxshiroq zaiflashuvga ega va past chastotali ekranlash effekti nisbatan cheklangan. Ayniqsa, metro, poezdlar, katta transformatorlar, liftlar, elektr uzatish kabellari va h.k. yaqinidagi MRT tizimlarini o'rnatish uchun nafaqat Faraday qafasi konfiguratsiya qilinishi, balki MRI tizimini diagnostik talablarga javob beradigan qilib, faol ekranlash tizimi ham sozlanishi kerak. CSJ-ASH-bu Ningbo Chuanshan Jia Electromechanical Co., Ltd tomonidan ishlab chiqilgan yuqori chastotali past chastotali elektromagnit maydonli faol himoya tizimi, u shahar elektromagnit maydonlarini, metro, poezd, tramvay, 50Hz/60Hz chastotali elektromagnit maydonlarni samarali himoya qila oladi. uzatish kabellari, transformator uskunalar, liftlar va boshqalar CSJ-ASH uchta asosiy komponentdan iborat: fluxgate yuqori aniqlikdagi prob, xost va ekranli lasan. Yuqori aniqlikdagi fluxgate probi atrof-muhit elektromagnit maydonining aralashuvini sezishi va uy egasiga uzatish uchun mos keladigan elektr signalini ishlab



chiqishi mumkin. Ishlov berilgandan so'ng, uy egasi real vaqtda ketadigan teskari tokni chiqaradi va oqim shovqin magnit maydonini bekor qilish uchun ekran lasanida teskari magnit maydon hosil qiladi va shu bilan past chastotali elektromagnit maydonlarni faol himoya qiladi.

Elektromagnit nurlanish elektromagnit to'liqlardan (ET) iborat bo'lib, ular elektr va magnit maydonlarining sinxron tarqalishidir. Elektromagnit nurlanish yoki elektromagnit to'liqlar elektr yoki magnit maydonning davriy o'zgarishi tufayli hosil bo'ladi. Ushbu davriy o'zgarish qanday sodir bo'lishiga va ishlab chiqarilgan quvvatga qarab, elektromagnit spektrning turli to'liq uzunliklari ishlab chiqariladi. Vakuumba elektromagnit to'liqlar yorug'lik tezligida tarqaladi, odatda c bilan belgilanadi. Bir xil, izotrop muhitda ikki maydonning tebranishlari bir-biriga perpendikulyar va energiya va to'liq tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar bo'lib, ko'ndalang to'liq hosil qiladi. Elektromagnit to'liqning elektromagnit spektrdagi holati, uning tebranish chastotasi yoki to'liq uzunligi bilan tavsiflanishi mumkin. Har xil chastotali elektromagnit to'liqlar turli xil nomlar bilan ataladi, chunki ular turli xil manbalarga ega. Chastotasi oshish yoki to'liq uzunligini kamayish tartibida ular quyidagicha joylashadi: past chastotali ET, radioto'liqlar, infraqizil nurlar, ko'zga ko'rinadigan nurlar, ultrabinafsha nurlar, rentgen nurlari va gamma nurlari.

Umumiy ko'rinishda EMM ko'rsatkichlari qiymati va intensivligiga, ishlov berish davomiyligiga bog'liq holatda o'simlik urug'larining ishlov berilishida stimullovchi va ingibirlovchi ta'sir effektlari qayd qilingan. Misol sifatida quyida bir nechta tadqiqotlarni keltirib o'tamiz.

C.И.Аксенова va boshqalar [1996] tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda past chastotali (30-33 Gs), sinusoida tavsifga ega bo'lgan EMM magnit induksiyasi maksimal amplituda qiymati 30 mTl ni tashkil qilgan holatda, magnitli aylantirgich (meshalka) yordamida 7-10 minut davomida aylantirilgan sharoitda turli xil navlarga mansub bug'doy urug'ining unuvchanlik ko'rsatkichlari o'rganilgan. Amalga oshirilgan tajribalar davomida unuvchanligi susayib ketgan bug'doy donlari EMM bilan ishlov berilganidan keyin 360% gacha unuvchanlik qiymati ortishi aniqlangan, shuningdek maysalarning miqdoriy jihatdan ortishi 10-300% gacha ortishi kuzatilgan. Unuvchanlik darajasi 100%ni tashkil qiluvchi bug'doy doni ekishdan oldin EMM bilan ishlov berilishi natijasi maysaning massasi 20% gacha ortishi kuzatilgan. EMM bilan ishlov berish natijasida urug' tarkibida esteraza fermentining gidrolitik faolligi qiymati faqat 100% unuvchanlik xususiyatiga ega donlarda kuzatilgan, unuvchanlik darajasi susayib ketgan bug'doy donida esa bu holat qayd qilinmagan. Undirilgan urug'larni EMM bilan ishlov berishda barcha holatlarda ungan murtak atrofida muhitning ishqoriylashishi



kuzatiladi, bu holat elektromagnit maydon bilan ishlov berish ta'sirida urug' tarkibida moddalar almashinuvi jadallashishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11357
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Elektromagnit_maydon
3. <http://uz.nbcsj-mr.com/low-frequency-electromagnetic-field-active-shielding-product/>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/past-chastotali-elektromagnit-maydonning-simlik-uru>



3D KONVOLYUTSION NEYRON TARMOQLARI BILAN TIBBIY TASVIR SEGMENTATSIYASI

Mamatqulov Mirvoxid Mirzoxid o'g'li

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti, "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqaruv"
kafedrasini "Axborot tizimlari va texnologiyalari" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabasi*

Anotatsiya: Mazkur maqolada 3D Konvolyutsion neyron tarmoqlari bilan tibbiy tasvir segmentatsiyasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari 3D nimaligi, Neyron tarmog'lari, Konvolyutsion neyron tarmoqlari va tibbiy tasvir segmentatsiyalarining har biri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: 3D, konvolyutsion, neyron tarmog'i, konvolyutsion neyron tarmoqlari, tibbiy tasvirlash, segmentatsiya.

Annotation: This article provides information on medical image segmentation with 3D Convolutional Neural Networks. In addition, information is provided on each of what 3D is, Neural Networks, Convolutional Neural Networks, and Medical Image Segmentation.

Key words: 3D, convolutional, neural network, convolutional neural networks, medical imaging, segmentation.

Аннотация: В этой статье представлена информация о сегментации медицинских изображений с помощью 3D-сверточных нейронных сетей. Кроме того, предоставляется информация о том, что такое 3D, нейронные сети, сверточные нейронные сети и сегментация медицинских изображений.

Ключевые слова: 3D, сверточная нейронная сеть, сверточные нейронные сети, медицинская визуализация, сегментация.

3D Nima? 3D — uch o'lchamli, ya'ni kengligi, balandligi va chuqurligi (uzunligi) bo'lgan narsani anglatadi. Bizning jismoniy muhitimiz uch o'lchovli va biz har kuni 3 o'lchamli fazoda harakat qilamiz. Odamlar ob'ektlar orasidagi fazoviy munosabatlarni faqat ularga qarash orqali idrok eta oladilar, chunki bizda chuqurlik idroki deb ham ataladigan 3 o'lchamli idrok mavjud. Atrofga qaraganimizda, har bir ko'zdagi to'r parda atrofimizdagi ikki o'lchovli tasvirni hosil qiladi va miyamiz bu ikki tasvirni 3 o'lchamli vizual tasvirga aylantiradi.

3D konvolyutsiyalar: tushunish - foydalanish misoli - dori kashfiyot



Oldingi yadrolarimdan birida men tasvirlar uchun konvolyutsion neyron tarmoqlarning ishlashini baham ko'rdim. Ushbu yadroda men 3D konvolyutsiyalarni va ularni 3D MNIST ma'lumotlar to'plamida amalga oshirishni tushuntirdim. Keyinchalik ushbu yadroda men Sog'liqni saqlashning yutuq va muhim sohalaridan birida 3D konvolyutsiya qatlamlaridan qanday foydalanishni ko'rsatdim: Dori-darmonlarni aniqlash

Konvolyutsiyalar nima?

Matematik nuqtai nazardan, konvolyutsiya - bu bir g funktsiyaning boshqa f funktsiyaga siljiganida bir-birining ustiga tushish miqdorini ifodalovchi integrasiya funktsiyasi.

Intuitiv ravishda konvolyutsiya ma'lumotni saqlagan holda ma'lumotlar maydonini kamaytirish uchun bir funktsiyani boshqasi bilan aralashtiruvchi blender vazifasini bajaradi.

Neyron tarmoqlar va chuqur o'rganish nuqtai nazaridan:

Konvolyutsiyalar - bu kirish ma'lumotlaridan past o'lchamli xususiyatlarni olish uchun ishlatiladigan o'rganiladigan parametrlarga ega filtr (matritsa / vektorlar).

Ular kirish ma'lumotlar nuqtalari orasidagi fazoviy yoki pozitsion munosabatlarni saqlab qolish xususiyatiga ega

Konvolyutsion neyron tarmoqlari qo'shni qatlamlarning neyronlari o'rtasida mahalliy ulanish naqshini qo'llash orqali fazoviy-mahalliy korrelyatsiyadan foydalanadi.

Intutiv ravishda konvolyutsiya - bu kiruvchi oyna kontseptsiyasini (o'rganish mumkin bo'lgan og'irliklarga ega filtr) kiritish va chiqish sifatida vaznli yig'indini (og'irliklar va kiritish) ishlab chiqarish bosqichidir. Og'irlangan yig'indi - bu keyingi qatlamlar uchun kirish sifatida ishlatiladigan xususiyat maydoni.

Misol uchun, Yuzni tanib olish muammosida dastlabki bir nechta konvolyutsiya qatlamlari kirish tasviridagi asosiy nuqtalarning bosilishini o'rganadi, keyingi konvolyutsiya qatlamlari qirralar va shakllarni o'rganadi va oxirgi konvolyutsiya qatlamlari yuzni o'rganadi. Ushbu misolda kirish maydoni birinchi navbatda pastki o'lchamli bo'shliqqa qisqartiriladi (nuqtalar / piksellar haqidagi ma'lumotni ifodalaydi), so'ngra bu bo'sh joy (qirralar / shakllar) bo'lgan boshqa bo'shliqqa qisqartiriladi va nihoyat tasvirlardagi yuzlarni tasniflash uchun qisqartiriladi. Konvolyutsiyalar N o'lchamda qo'llanilishi mumkin.

Konvolyutsiya turlari:

1D konvolyutsiyalar - Ko'pgina soddalashtirilgan konvolyutsiyalar 1D konvolyutsiyalardir, odatda ketma-ketlik ma'lumotlar to'plamida qo'llaniladi (lekin



boshqa foydalanish holatlarida ham foydalanish mumkin). Ular kirish ketma-ketliklaridan mahalliy 1D kichik ketma-ketliklarni chiqarish va konvolyutsiya oynasidagi mahalliy naqshlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Quyidagi rasmda yangi xususiyatlarni olish uchun ketma-ketlikda 1D konvolyutsiya filtri qanday qo'llanilishi ko'rsatilgan. 1D konvolyutsiyalarining boshqa keng tarqalgan qo'llanilishi NLP sohasida ko'rinadi, bu erda har bir jumla so'zlar ketma-ketligi sifatida ifodalanadi.

2D konvolyutsiyalar - Rasm ma'lumotlar to'plamida CNN arxitekturalarida asosan 2D konvolyutsion filtrlar qo'llaniladi. 2D konvolyutsiyalarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, konvolyutsion filtr tasvir ma'lumotlaridan past o'lchamli xususiyatlarni hisoblash uchun 2 yo'nalishda (x, y) harakat qiladi. Chiqish shakli ham 2 o'lchovli matritsadir.

3D konvolyutsiyalar - 3D konvolyutsiyalar ma'lumotlar to'plamiga 3 o'lchovli filtrni qo'llaydi va filtr past darajadagi xususiyat ko'rinishlarini hisoblash uchun 3 yo'nalishga (x, y, z) harakat qiladi. Ularning chiqish shakli kub yoki kuboid kabi 3 o'lchovli hajmli bo'shliqdir. Ular videolarida, 3D tibbiy tasvirlarda va hokazolarda hodisalarni aniqlashda yordam beradi. Ular 3D maydoni bilan cheklanib qolmaydi, balki tasvirlar kabi 2D kosmik kirishlariga ham qo'llanilishi mumkin.

Neyron tarmoqlar nima? Konvolyutsion neyron tarmoqlari haqida gapirishni boshlashdan oldin, oddiy neyron tarmoqlarni aniqlashga biroz vaqt ajratamiz. bor boshqa maqola mavjud neyron tarmoqlari mavzusida, shuning uchun biz bu erda ularga chuqur kirmaymiz. Biroq, ularni qisqacha ta'riflash uchun ular inson miyasidan ilhomlangan hisoblash modellari. Neyron tarmoq ma'lumotlarni qabul qilish va "og'irliklar" ni sozlash orqali ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish orqali ishlaydi, bu kirish xususiyatlarining bir-biriga va ob'ekt sinfiga qanday bog'liqligi haqidagi taxminlardir. Tarmoq o'rgatilgandan so'ng, og'irliklarning qiymatlari o'rnatiladi va umid qilamanki, ular xususiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni aniq aks ettiradigan og'irliklarga yaqinlashadi. Oldinga o'tuvchi neyron tarmog'i shunday ishlaydi va CNN ikki qismdan iborat: oldinga uzatiladigan neyron tarmoq va konvolyutsion qatlamlar guruhi.

Konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) Nneyron tarmoqlar farqi. Konvolyutsion neyron tarmog'ida qanday "konvolyutsiyalar" sodir bo'ladi? Konvolyutsiya - bu og'irliklar to'plamini yaratadigan, mohiyatan tasvir qismlarining tasvirini yaratadigan matematik operatsiya. Ushbu og'irliklar to'plami deb ataladi yadro yoki filtr. Yaratilgan filtr butun kiritilgan tasvirdan kichikroq bo'lib, tasvirning faqat bir qismini qamrab oladi. Filtrdagi qiymatlar rasmdagi qiymatlar bilan ko'paytiriladi. Keyin filtr tasvirning yangi qismining tasvirini hosil qilish uchun harakatlantiriladi va butun rasm qoplanmaguncha jarayon takrorlanadi. Bu haqda o'ylashning yana bir usuli - g'isht



devorini tasavvur qilish, g'ishtlar kirish tasviridagi piksellarni ifodalaydi. "Deraza" filtr bo'lgan devor bo'ylab oldinga va orqaga surilmoqda. Deraza orqali ko'rish mumkin bo'lgan g'ishtlar, ularning qiymati filtr ichidagi qiymatlarga ko'paytiriladigan piksellardir. Shu sababli, filtr bilan og'irliklarni yaratishning bu usuli ko'pincha "surma oynalari" texnikasi deb ataladi. Barcha kirish tasviri bo'ylab ko'chirilayotgan filtrlarning chiqishi butun tasvirni ifodalovchi ikki o'lchovli massivdir. Bu massiv a deyiladi "Xususiyatlar xaritasi".

Neyron tarmoqlari — bu insonning asab tizimini ko'paytirishga urinishlarga asoslangan sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar yo'nalishlaridan biri. Aynan: asab tizimining xatolarni o'rganish va tuzatish qobiliyati, bu bizga odam miyasining ishlashini taqlid qilishga imkon beradi. Inson nerv sistemasi yoki asab tizimi — bu tananing barcha tizimlarining o'zaro bog'liq xatti-harakatlarini ta'minlaydigan murakkab tuzilmalar tarmog'i.

Biologik neyron — bu yadrodan, hujayrali tanadan va jarayonlardan iborat bo'lgan maxsus hujayradir. Neyronning asosiy vazifalaridan biri boshqa neyronlar bilan ulanish orqali neyron tarmog'iga elektrokimyoviy impulsni yuborishdir. Bundan tashqari, har bir aloqa sinaptik aloqaning kuchi deb nomlanadigan ma'lum bir miqdor bilan tavsiflanadi. Ushbu qiymat boshqa neyronga o'tkazilganda elektrokimyoviy impuls bilan nima sodir bo'lishini aniqlaydi: u kuchayadi yoki zaiflashadi yoki o'zgarishsiz qoladi.

Biologik neyron tarmoq yuqori darajadagi ulanishga ega: boshqa neyronlar bilan bir necha mingta aloqa bitta neyronga tushishi mumkin. Ammo, bu taxminiy qiymat va har bir holatda u boshqacha. Bir neyronidan ikkinchisiga impulslarning uzatilishi butun neyron tarmog'ining ma'lum bir qo'zg'alishini keltirib chiqaradi. Ushbu qo'zg'alishning kattaligi neyron tarmoqning ba'zi kirish signallariga javobini aniqlaydi. Masalan, odamning eski tanishi bilan uchrashuvi, agar ba'zi tanish va yoqimli hayot xotiralari ushbu tanishish bilan bog'liq bo'lsa, neyron tarmog'ining kuchli qo'zg'alishiga olib kelishi mumkin. O'z navbatida, neyron tarmog'ining kuchli qo'zg'alishi yurak urish tezligining oshishiga, ko'zlarning tez-tez yonib turishiga va boshqa reaksiyalarga olib kelishi mumkin. Neyron tarmoq uchun notanish odam bilan uchrashuv deyarli imkonsiz bo'ladi,

Biologik neyron tarmog'ining quyidagi juda soddalashtirilgan modelini berish mumkin: Har bir neyron yadrodan tashkil topgan hujayrali tanadan iborat. Dendrit deb ataladigan ko'plab qisqa tolalar hujayraning tanasidan ajralib chiqadi. Uzoq dendritlarga aksonlar deyiladi. Aksonlar uzoq masofalarni bosib o'tishadi, bu raqam o'lchovida



ko'rsatilgandan ancha kattadir. Aksonlar odatda 1 sm uzunlikka ega (bu hujayra tanasining diametridan 100 baravar ko'p), ammo 1 metrqa yetishi mumkin.

XX asrning 60–80-yillarida ekspert tizimlari sun'iy intellekt sohasida izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Ekspert tizimlari yaxshi ishladi, ammo faqat yuqori ixtisoslashgan sohalarda. Ko'proq universal aqlli tizimlarni yaratish uchun boshqacha yondashuv talab qilindi. Ehtimol, bu sun'iy intellekt tadqiqotchilari e'tiborini inson miyasining ostidagi biologik neyron tarmoqlarga qaratganligiga olib keldi.

Sun'iy intellektidagi neyron tarmoqlari biologik neyron tarmoqlarining soddalashtirilgan modelidir. O'xshashlik shu yerda tugaydi. Inson miyasining tuzilishi yuqorida aytib o'tilganlarga qaraganda ancha murakkab va shuning uchun uni hech bo'lmaganda aniqroq ko'paytirish mumkin emas. Neyron tarmoqlari juda ko'p muhim xususiyatlarga ega, ammo asosiysi bu o'rganish qobiliyatidir. Neyron tarmog'ini o'rganish birinchi navbatda neyronlar orasidagi sinaptik aloqalarning «kuchini» o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Buni quyidagi misol yaqqol ko'rsatib turibdi. Pavlovning klassik tajribasida har safar itni boqishdan oldin qo'ng'iroq jiringladi. It tezda qo'ng'iroqni ovqat bilan bog'lashni o'rganib oldi. Bunga miyaning eshitish uchun javob beradigan qismlar va tuprik bezlari orasidagi sinaptik aloqalar kuchayganligi sabab bo'lgan. Va qo'ng'iroq sadosi bilan neyron tarmoqning keyingi qo'zg'alishi itda kuchli tupurikka olib kela boshladi. Bugungi kunda neyron tarmoqlar sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Tarmoq ma'lum elementlarning yig'indisidir. Bu matematika, fizika yoki texnologiyadagi eng oddiy yondashuv. Agar kompyuter tarmog'i o'zaro bog'langan kompyuterlar to'plami bo'lsa, u holda neyron tarmoq aniq neyronlar to'plamidir.

Biroq, bu elementlarni murakkabligi bo'yicha miyamiz va asab tizimimizning nerv hujayralari bilan uzoqdan solishtirish ham mumkin emas, lekin ma'lum darajada mavhumlik darajasida sun'iy neyron va biologik neyronning ba'zi xususiyatlari keng tarqalgan. Ammo shuni yodda tutish kerakki, sun'iy neyron uning biologik hamkasbiga qaraganda ancha sodda tushuncha bo'lib, biz hali ham hamma narsani bilmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/3D>
2. <https://www.unite.ai/uz/konvolyutsion-neyron-tarmoqlar-nima/>
3. <https://medium.com/@bunyodbekhusanov/neyron-tarmoqlari-3e903c748646>
4. <https://uz.root-nation.com/ua/articles-ua/tech-ua/ua-what-is-neural-network/>



TARJIMA NAZARIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

*Farg'ona davlat Universiteti
Magistratura bo'limi Lingvistika (Nemis tili)
mutaxassisiligi 2-bosqich talabasi
Turg'unova Maloxatxon Xusanboy qizi
PhD Azizboy Axyamov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima nazariyasining konkretizatsiya, generalizatsiya va modulyatsiya kabi asosiy usullari yoritiladi. Barxudarov, Komissarov, Fedorov, Vinay va Darbelnet kabi mashhur tarjima nazariyotchilarining qarashlari asosida ushbu usullarning mohiyati va tarjima jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Konkretizatsiya so'z va iboralarni aniqroq va maxsusroq qilib tarjima qilishni, generalizatsiya esa murakkab tushunchalarni umumlashtirishni anglatadi. Modulyatsiya esa mazmuni saqlagan holda so'zlarning shaklini o'zgartirish usulidir. Ushbu maqolada tarjima jarayonida ushbu usullarning leksik-semantik jihatlarini va qo'llanishi ko'rib chiqiladi, shuningdek, amaliy misollar bilan tasdiqlanadi. Maqola tarjimonlar uchun nazariy va amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati esa mavzuni chuqurroq o'rganish uchun qo'shimcha manbalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Tarjima nazariyasi, Konkretizatsiya, Generalizatsiya, Modulyatsiya, Leksik-semantik tahlil, Tarjima usullari, Madaniy moslashuv, Tarjima jarayoni, Sinonim tanlash, Sintaktik tuzilish.

Основные понятия теории перевода

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные методы теории перевода, такие как конкретизация, генерализация и модуляция. На основе взглядов известных теоретиков перевода, таких как Бархударов, Комиссаров, Федоров, Винай и Дарбельне, анализируются сущность этих методов и их значение в процессе перевода. Конкретизация означает более точный и специфический перевод слов и выражений, генерализация — обобщение сложных понятий, а модуляция — изменение формы слов при сохранении их значения. В статье рассматриваются лексико-семантические аспекты и применение этих методов в процессе перевода, а также приводятся практические примеры. Статья служит теоретическим и практическим руководством для переводчиков. Список использованной литературы предоставляет дополнительные источники для более глубокого изучения темы.



Ключевые слова: Теория перевода, Конкретизация, Генерализация, Модуляция, Лексико-семантический анализ, Методы перевода, Культурная адаптация, Процесс перевода, Выбор синонимов, Синтаксическая структура.

Basic concepts of translation theory

Annotation: This article examines the main methods of translation theory, such as concretization, generalization, and modulation. Based on the views of well-known translation theorists such as Barkhudarov, Komissarov, Fedorov, Vinay, and Darbelnet, the essence of these methods and their significance in the translation process are analyzed. Concretization means translating words and phrases more precisely and specifically, generalization means summarizing complex concepts, and modulation means changing the form of words while preserving their meaning. This article explores the lexical-semantic aspects and application of these methods in the translation process, along with practical examples. The article serves as a theoretical and practical guide for translators. The list of references used provides additional sources for a deeper understanding of the topic.

Keywords: Translation theory, Concretization, Generalization, Modulation, Lexical-semantic analysis, Translation methods, Cultural adaptation, Translation process, Synonym selection, Syntactic structure.

Tarjima nazariyasi tarjimonlar uchun muhim vositadir. Bu nazariya tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ushbu maqolada biz konkretizatsiya, generalizatsiya va modulyatsiya kabi tarjima usullarining mohiyati va qo'llanilishi haqida so'z yuritamiz. Bu usullar tarjimonlarga mazmunni aniq va tushunarli qilib yetkazishda yordam beradi.

A.D. Shveyser tarjima jarayonida grammatik transformatsiya, leksik-semantik parafraza va situatsion transformatsiyalarni farqlash lozimligini ta'kidlaydi¹. V. Komissarov esa „Tarjima nazariyasi“ nomli kitobida tarjimaning leksik-semantik aspektida so'zlarni, umaman matni tarjima qilishda 3 xil almashtiruv uslubi haqida bayon qiladi².

Leksik-semantik almashtirishlar asl leksik birliklarni tarjimada til birliklari yordamida tarjima qilish usuli bo'lib, ularning ma'nosi asliyat til birliklarining ma'nolariga to'g'ri kelmaydi, lekin ma'lum turdagi mantiqiy o'zgarishlar yordamida

¹ Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. М., 1988. С. 75.

² Комиссаров В. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. - М.: Высш. шк., 1990. - 253 с.



ularni ifodalashi mumkin. Bunday almashtirishlarning asosiy turlari - asl birlik ma'nosini aniqlashtirish (konkretizatsiya), umumlashtirish (generalizatsiya) va modulyatsiya qilish (semantik rivojlanish).

Konkretizatsiya, yoki aniqlashtirish keng ma'noli asliyat til birligini tor ma'noli tarjima tilining birligi bilan leksik-semantik almashtirishdir³. Bu usulda keng ma'noli til birliklari tarjima orqali boshqa tilda torroq, aniqroq mazmunda, tushunish oson bo'lgan shaklda beriladi. Konkretizatsiya, ko'pincha, asliyat tilidagi so'z polisemik xususiyatga va unga mos konnotatsiyalarga ega bo'lganda ishlatiladi, chunki bunday so'zlar turli sohalarda va turli darajalarda qo'llanishi mumkin. Shu orqali tarjimon til birligining aynan qaysi ma'noda kelayotganini tushungan holda o'quvchiga ham aniq yetkazib bera oladi.

Generalizatsiya usulida tor ma'noga ega asliyat til birligi kengroq ma'noga ega bo'lgan tarjima til birligiga almashtiriladi, ya'ni transformatsiyaga uchraydi. Buni xususiy ma'noga ega bo'lgan so'z yoki ibora uni umumiyashtiruvchi so'z bilan ifodalanishi bilan ham tushuntirishimiz mumkin.

Modulyatsiya, ya'ni semantik rivojlanishda asliyat tilidagi so'z yoki iboralar tarjima tiliga asliyatdagi til birligining mantiqiy natijasi hisoblanagn ifodasiga leksik-semantik jihatdan almashtiriladi.

Tarjimaning qiyosiy tahlillari yana shuni ko'rsatadiki, asliyatdagi so'z va iboralarning tarjima tilida to'g'ridan-to'g'ri ifodalovchi til birligi mavjud bo'lmaydi. Tarjima tilida asliyat tilidagi so'zning ma'nosini aniq ifodalab bera oladigan so'z mavjud bo'lmagan taqdirda, olimlar noekvivalentlik haqida gapiradilar.

Noekvivalentlik, ko'pincha, neologizmlar, maxsus tushunchalarni ifodalovchi so'zlar va milliy realiyalar, tarjima jarayonida okkazonal mosliklarini yaratish lozim bo'lgan uncha mashhur bo'lmagan ismlar va nomlar orasida uchraydi. Biroq noekvivalentlik birlikning mavjudligi uning ma'nosini tarjimada bermaslik yoki noaniq tarjima qilish kerakligini anglatmaydi.

Tarjima jarayonida konkretizatsiya, generalizatsiya va modulyatsiya usullarini leksik-semantik jihatdan qo'llash uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak: deb hisoblaymiz:

Konkretizatsiya

1. Kontekstni tushunish: Konkretizatsiya qilishda so'z yoki iboraning kontekstini chuqur tushunish muhim. Bu tarjimonlarga aniqroq va maxsusroq tarjimini amalga oshirishga yordam beradi.

³ Комиссаров В. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. - М.: Высш. шк., 1990. - 247 с.



2. Madaniy farqlarni hisobga olish: Konkretizatsiya jarayonida madaniy farqlarni inobatga olish zarur. Bu o'quvchilar uchun matnni tushunarliroq qilishga yordam beradi.

3. Sinonimlarni to'g'ri tanlash: Konkretizatsiya qilinadigan so'zning sinonimlari va ular orasidagi farqlarni to'g'ri tanlash kerak. Bu tarjimaning aniqligini oshiradi.

4. Leksik-semantik o'zgarishlar: Konkretizatsiya jarayonida so'zning leksik-semantik o'zgarishlarini nazorat qilish zarur. Bu o'quvchi uchun matnning tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlaydi.

Generalizatsiya

1. Murakkab tushunchalarni soddalashtirish: Generalizatsiya jarayonida murakkab tushunchalarni umumiyroq va soddaroq so'zlar bilan almashtirish kerak. Bu matnni kengroq auditoriyaga tushunarli qiladi.

2. Matnning umumiy mazmunini saqlash: Generalizatsiya qilinadigan so'zlar matnning umumiy mazmunini buzmasligi kerak. Mazmunni saqlagan holda, uni soddalashtirish muhim.

3. To'g'ri sinonimlarni tanlash: Generalizatsiya qilinadigan so'zlar uchun sinonimlarni to'g'ri tanlash zarur. Bu tarjimaning semantik jihatdan to'g'ri bo'lishiga yordam beradi.

4. Madaniy moslashuv: Generalizatsiya jarayonida madaniy jihatdan mos keladigan so'zlarni tanlash lozim. Bu matnning o'quvchi uchun tushunarli va qabul qilinadigan bo'lishiga yordam beradi.

Modulyatsiya

1. Mazmunni saqlagan holda shaklni o'zgartirish: Modulyatsiya jarayonida so'zlarning shaklini o'zgartirgan holda, ularning mazmunini saqlash kerak. Bu tarjimaning aniqligini oshiradi.

2. Konnotativ ma'nolarni hisobga olish: Modulyatsiya jarayonida so'zlarning konnotativ ma'nolarini inobatga olish muhim. Bu matnning asl mazmunini saqlagan holda, tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

3. Syntaktik tuzilishni moslashtirish: Modulyatsiya qilishda syntaktik tuzilishni moslashtirish zarur. Bu tarjimaning grammatik jihatdan to'g'ri va o'quvchi uchun qulay bo'lishini ta'minlaydi.

4. Madaniy va leksik-semantik o'xshashliklar: Modulyatsiya jarayonida madaniy va leksik-semantik o'xshashliklarni hisobga olish lozim. Bu matnning tushunarli va qabul qilinadigan bo'lishiga yordam beradi.

Xulosa



Tarjima jarayonida konkretizatsiya, generalizatsiya va modulyatsiya usullarini leksik-semantik jihatdan qo'llashda yuqoridagi jihatlarga e'tibor berish muhim. Ushbu usullar tarjimaning aniqligi, tushunarililigi va qabul qilinishi uchun katta ahamiyatga ega. Tarjimonlar ushbu yondashuvlarni qo'llashda har bir so'zning kontekstini, madaniy jihatlarni va leksik-semantik o'zgarishlarini inobatga olishlari kerak. Bu tarjimaning sifatini oshiradi va o'quvchilar uchun qulay bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Barxudarov, L. S. (1975).** "Language and Translation". Moscow: International Relations Publishing House.
2. **Komissarov, V. N. (1990).** "Theory of Translation (Linguistic Aspects)". Moscow: Vysshaia Shkola.
3. **Швейцер А.Д.** Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. М., 1988. С. 75.
4. **Fedorov, A. V. (1968).** "Introduction to Translation Theory". Moscow: Higher School of Economics Publishing House.
5. **Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1958).** "Stylistique Comparée du Français et de l'Anglais: Méthode de Traduction". Paris: Didier.
6. **Catford, J. C. (1965).** "A Linguistic Theory of Translation". London: Oxford University Press.
7. **Newmark, P. (1988).** "A Textbook of Translation". New York: Prentice Hall.
8. **Korneyev, I. A. (1986).** "Translation: Theory and Practice". Moscow: Progress Publishers.



XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI TAHLILIGA DOIR NAZARIY BILIMLARNI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'RGATISH

Nurulloyeva Zumrat Amrullo qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Magistratura bosqichi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limda adabiyot fani, ilk bosqichlarda o'qitish metodikasi, xalq og'zaki ijodi, folklor adabiyoti tarixi va turlari.

Kalit so'zlar: adabiyot, metodika, xalq og'zaki ijodi, folklor, doston, ertak, maqol, matal

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan keyin adabiyot o'qitish metodikasi ilmida ham keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi. Xususan adabiy ta'lim oldiga ma'naviy komillik sari yuz tutgan avlodni shakllantirish vazifasini qo'ydi. Ma'lumki, Komil shaxs tarbiyalash yuki hamma zamonlarda adabiyotning zimmasida bo'lgan. Bu davr metodistlarining har biri mazkur vazifani o'z imkoniyatlari darajasida uddalashga harakat qilmoqdalar. Hozirgi sharoitda o'quvchilarni ham ruhan, ham aqlan, ham jisman yetuk qilib shakllantirish uchun milliy pedagogika ilmi va uzluksiz ta'lim amaliyotida oldingidan tamomila yangicha yo'sinda ish olib borish taqozo etilmoqda. Ta'limning dastlabki boshlang'ich bosqichi o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda o'qish darslarining o'rni beqiyos. O'qituvchi tomonidan adabiyot kitoblaridagi asarlarni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga va tuyishga o'rgana boradi

“Adabiy ta'lim konsepsiyasi”dagi yetakchi g'oyalar asosida adabiyot o'qitish bo'yicha “Davlat ta'lim standarti” yaratilib, unda turli sinflarning dastur va darsliklarida ko'zda tutilishi hamda o'quvchilar o'zlashtirishlari shart deb belgilangan bilim, ko'nikma, malakalar va ma'naviy sifatlarning minimal ko'rsatkichlari ham o'z ifodasini topdi. DTSning minimal talablar qismi ta'lim jarayonida qatnashayotgan sog'lom bola erishishi shart bo'lgan marra hisoblanib, u davlat tomonidan muayyan bosqichni bitirayotgan o'quvchiga qo'yiladigan talabni anglatadi. “Adabiy ta'lim standarti”da belgilangan mezonlarga tayanib yangidan tuzilgan “Adabiyot” dasturida maktabda adabiyot o'qitishning maqsadi yo'lida soha mutaxassislari tomonidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim deb topilgan bilimlar tizimi aks etdi



Ma'lumki O'rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbek san'ati va uning eng qadimgi turi hisoblangan xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, uning etnik janri bo'lgan dostonlari g'oyat faxrli o'rin tutgan, mehnatkash xalqning g'oyaviy, axloqiy-ma'rifiy, ma'naviy takomilida xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalari, ozod va farovon hayotga intilishlari, adolatsizlik va xaqsizlikka qarshi qarshi kurash o'z ifodasini topgan. Shu ma'noda asrlar davomida sayqal topib, avloddan avlodgano'tib kelayotgan o'zbek xalq dostonlari ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lib, xalq hayotida turli davrlarda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy qadriyatlarni, marosim va urf-odatlarni o'zida jamlagan boy va mukammal manbadir. Binobarin, bu manbani har jihatdan o'rganib, ulardan foydalanib, an'anaviy qadriyatlarni, muhim g'oyalarni umumlashtirib va ular asosida yosh avlodni tarbiyalashda istiqloq mafkurasini yaratishga kirishilgan hozirgi davrda g'oyatda muhimdir. Xalqimiz bag'ridan ajoyib iste'dod sohiblari yetishib chiqqan. Ularning orzu istaklari, ular yaratgan terma va dostonlarda ona allalari va o'yinlarida o'z ifodasini topgan. Maqol va matallar, ertak va afsonalar, latifa va topishmoqlar hamda qahromonlik dostonlariga xalqning aql-zakovati, orzu havasi, ruhi va irodasi singdirilgan. Dostonchiligimizning o'ziga xosligidan biri jahon xalqlari madaniyatiga qo'shgan katta hissa-undagi turkum dostonlarining yaratilishidir. Jumladan, o'zbek folklorining "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon" kabi turkum dostonlarga birikkan asarlarning har biri yuksak darajadali bilan ajralib turadi.

Xalq ijodi — xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati; an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqi folklori), xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'yinlari (raqs), qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari (xalq sirki), xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga moyil ravishda shakllanib, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an'anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, Xalq ijodining bir qator qadimiy namunalari yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida, qoyatoshlarda (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, uy-ro'zg'or buyumlarida saqlanib kelgan.

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va



olamga nisbatan his-tuygʻulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi oʻy-fikrlari oʻz ifodasini topgan. Xalq ijodi qadimdan rivojlanib kelgan jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim isteʼdodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, masxarabozlar, qiziqchilar, qoʻgʻirchoqbozlar, raqqoslar, mashshoklar, naqqoshlar, kulollar, oʻymakorlar, kashtadoʻzlar va boshqa sanʼatlar yuzaga kelgan, korfarmon va ishboshilar paydo boʻlgan. Ammo uning yaratilishi va oʻzlashtirilishida koʻpchilikning ishtiroki, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam anʼanalar doirasida voqe boʻlishi saqlanib kelgan. Har qanday badiha, ijodiy xatti-harakat, yangilik barqaror anʼanalar va ustoz shogird munosabatlari doirasida roʻy bergan. Bir tomondan, anʼanalarning oʻzi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida oʻzgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar, variantlar yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

Xalq ijodi professional sanʼatning yuzaga kelishi va rivojida katta oʻrin tutadi. Oʻz navbatida, professional sanʼat ham xalq ijodi rivojiga taʼsir koʻrsatib, uni boyitib kelmoqda. Jamiyatda xalq ijodi namunalarini saqlash va rivojlantirish, yoʻqolganlarini tiklash ehtiyoji oʻzining estetik talablarini qondirish, yaxshi yashash va hayotini mukammallashtirishga boʻlgan intilishidan kelib chiqqan. Bugungi kunda xalq ijodini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Umum davlat miqyosidagi muzeylar va qoʻriqxonalarining ishlayotganligi, xalq ijodi namunalarining ilmiy oʻrganilishi va nashr etilayotganligi, koʻplab folklor etnografik ansambllarning mavjudligi, badiiy havaskorlikni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi buning tasdigʻidir.

Xalq ogʻzaki badiiy ijodi (folklor). Inson nutqi shakllanishi bilan xalq ogʻzaki badiiy ixodining qad. tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini oʻz ichiga olgan bu sinkretik ijod namunalari ibtidoiy inson maishati va faoliyatining barcha jihatlarini bilan mahkam bogʻlangan boʻlib, qadimgi odamlarning diniy eʼtiqodiy va mifologik qarashlarini, boshlangʻich ilmiy (empirik) bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Biroq qadimiy folklorning bunday namunalari bizgacha yetib kelmagan, balki ularning izlari va ayrim qismlari xalqning yashash va turmush tarzi bilan bogʻliq turlituman tasavvur va qarashlarida, xalq urfodatlarini, udumlari, marosimlari, bayramlari tarkibida, baʼzi bir yozma manbalarda, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlarida qoldiq holidagina saqlanib qolgan. Yozuvning yuzaga kelishi natijasida xalq ogʻzaki badiiy ijodi bilan tarixan bogʻliq adabiyot xam paydo boʻldi. Badiiy matnning ayrim ijodiy (yozuvchi,



shoir, dramaturg) faoliyat bilan bog‘lanishi, muayyan ijodiy harakat sifatida yozuv bilan mustahkamlanishi adabiyotning asosiy xususiyati bo‘lib, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi o‘ziga xos burilish nuqtasidir. Adabiyot o‘zining taraqqiyoti davomida folklordan barcha estetik tushunchalar va badiiy shakllarni olganligiga qaramay, o‘ziga xos badiyat qonuniyatlari asosida mustaqil ravishda rivojlana bordi. So‘z san‘atining mustaqil turi sifatida folklor ham u bilan birgalikda yonmayon yashab keldi. Chunki kishilik jamiyatining umumiy estetik talabi va ehtiyoji uzoq yillar davomida faqat adabiyot bilan emas, balki folklor bilan ham mustaxkam bog‘liq bo‘ldi. So‘z san‘ati bu 2 turining mustaqil rivoji, adabiyot va folklor asarlari yaratilgan ijtimoiy muhitdagi faktlar, ijodiy jarayonning xilma xilligi ularning o‘zlariga xos spetsifik xususiyatlarini yanada kuchaytirdi. Natijada adabiyot va folklor o‘zlariga xos muayyan estetik tizim, janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘z san‘atining mustaqil 2 turi — og‘zaki va yozma turi sifatida rivojlanishda davom etdi.

Yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og‘zakiligi va unda ko‘pchilikning ishtirok etishi (jamoaviylik) xalq og‘zaki badiiy ijodining asosiy xususiyatidir. Uning an‘anaviylik, o‘zgaruvchanlik, variantlik, ommaviylik, anonimlik (muallifining noma‘lumligi) kabi ko‘pdan ko‘p belgilari folklorga xos ijodiy jarayonning ana shu bosh xususiyati doirasida namoyon bo‘ladi. Folklor namunalari og‘zaki yaratilib, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida og‘zaki tarqalar hamda ommaviy repertuardan keng o‘rin olar ekan, bunda badiiy shakllarning barqarorligi (turg‘unligi), matndan matnga o‘tuvchi umumiy o‘rinlarning qat‘iylashganligi, o‘xshash sayyor syujetlarning ko‘pligi imkoniyat yaratadi. Har bir ijodkor va ijroda an‘anaviy asardagi nimalardir o‘zgaradi, nimalardir avvalgisidan boshqacharoq talqin etiladi, nimalardir qo‘shiladi yoki tushib qoladi. Bunday o‘zgaruvchanlik ijtimoiy muhit, maishiy sharoit, eshituvchilar talabi va ijrochi (ijodkor) salohiyatiga bog‘liq. Lekin har qanday o‘zgarish, ijro davomidagi qayta ijod asrlar davomida kagiylashgan puxta an‘analar doirasida sodir bo‘ladi. Demak, jonli og‘zaki an‘ana doirasidagi badihago‘ylik folklor asarlarining ko‘p variantlarida tarqalishiga olib keladi.

O‘zbek folklorining so‘z san‘atiga asoslangan janrlar tizimi doston, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, og‘zaki drama, maqol va hikmatli so‘zlar, afsun, avrash, olqish va qarg‘ishlardan iboratdir. Folklor har bir xalqning ma‘naviy boyligi hamda ulug‘ qadriyatidir. Insonning ma‘naviyatini yuksaltirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug‘ilishidan boshlanadi. Onalarimiz, momolarimiz aytgan allalar, ertaklar, tez aytishlar, maqollar va qo‘shiqlar bolaning tili va dunyoqarashi shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yosh vakillarini birday qiziqtiruvchi xalq o‘yinlari esa



bolaning ham aqlan, ham jismonan ulgʻayishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, har bir xalqning til boyligi birinchi navbatda, uning folklorida namoyon boʻladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning xalq ogʻzaki ijodini oʻrganish zarur. Folklorida xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan boʻladi. Alloma Hodi Zarif: Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lugʻat boyligi bilan belgilanadi degan edi. Barcha davr tilshunoslarini xalq poetik ijodini oʻrganish qiziqtirib kelgan. Mahmud Koshgʻariy zamonidan to bugungi kunga qadar xalq ogʻzaki ijodi haqida nimaiki aytilgan boʻlsa, bularning bari buyuk merosni oʻrganishga oʻzining munosib ulushini qoʻshgan. Folklor ijod namunalari xalqning boyligi hisoblanar ekan, ularni oʻrganish ham hamma vaqt dolzarb masalalardan biri boʻlib kelgan. Xalq ogʻzaki badiiy ijodini oʻrganuvchi fan folklorshunoslik yoki folkloristika deb yuritiladi. Shu maʼnoda folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor toʻgʻrisidagi ilk fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Barcha davrlarning oʻziga xos urf-odat va madaniyati shakllanishi natijasida folklorshunoslik ham darajama daraja oʻsib borgan. Arab xalifaligi hududlaridagi xalqlar ertak va rivoyatlarining yigʻindisi boʻlmish —”Ming bir kecha kitob”ini ham folklor namunalarini yigʻishda oʻziga xos tajriba deyish mumkin. Folklor atamasini 1846- yilda ingliz olimi Uilyam Tomas taklif qilgan boʻlib, u “xalq donolig”i degan maʼnoni anglatadi. Dastlabki vaqtlarda el adabiyoti, xalq adabiyoti, ogʻzaki adabiyot, xalq ogʻzaki ijodi deb yuritilib kelingan oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi Hodi Zarif ijodidan boshlab, yaʼni 1935- yildan eʼtiboran Oʻzbek folklori nomi bilan ishlatiladi. Xususan, folklor namunalari hisoblangan Toʻmaris, Shiroq kabi afsonalar, Alpomish, Ravshan, Kuntugʻmish kabi dostonlar, Malikai Husnobod, Uch ogʻa-ini botirlar kabi ertaklar, lirik qoʻshiqlar, marosim va mehnat qoʻshiqlari hamda boshqa ogʻzaki ijod namunalari oʻzbek xalqi qadriyatlarining ajralmas qismidir. Folklor barcha sanʼatning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa koʻpgina sanʼatlar u bilan uygʻunlikka ega, shuning bilan birga hech biriga oʻxshamagan oʻziga xosligi bilan alohida ajralib turuvchi sanʼat turidir deb taʼkidlagan edi folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov darhaqiqat, buni tan olmasdan ilojimiz yoʻq chunki xalqimiz madaniyatining eng dastlabki kurtaklari folklor namunalari orqali koʻrinadi. Bugungi kunda maʼlumki, shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga taʼsir qilmasdan samaraga erishib boʻlmaydi. Xalq ogʻzaki ijodida avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Dostonlarimizning bosh qahramonlariga aylangan jasur va mard oʻgʻlonlar va barno va iboli qizlar timsoli hech bir oʻquvchini eʼtiborsiz



qoldirmaydi. Ularning qilgan xatolari orqali yoshlarga to'g'ri yo'lni tanlash kerakligi uqtiriladi. Nafaqat dostonlarimiz tarbiyaviylik ahamiyati jihatdan folklorshunoslikda maqollarning ham ahamiyati salmoqli darajadadir.

Xalq og'aki ijodini o'quvchilarga turli xil interfaol metodlar asosida tushintirish mumkin. Jumladan 5-sinf o'quvchilariga xalq maqollarini tushintirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

“So`z zanjiri” o`yini

“So`z zanjiri” o`yinini nafaqat ona tili darslarida, balki adabiyot darslarida ham qo`llash mumkin. O`quvchilarga xalq maqollarini yodlatishda va dars qiziqarli o`tishida ko`maklashadi. Bu o`yin og`zaki bo`lganligi sababli o`quvchilar hamda o`qituvchining diqqatli bo`lishini talab qiladi. O`quvchilar tomonidan ayrim maqollar takroran aytilishi mumkin, bu holatda o`qituvchi ularni ogohlantirib turishi kerak.

Topshiriq namunasi:

Avval o`yla, keyin so`yla.

Aytilgan so`z – otilgan o`q.

Qazisan, qartasan, asli zotingga tortasan.

Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.

Achchiqni achchiq kesar . . .

“Qofiyadoshini top” o`yini

Bu topshiriq o`quvchilarga nazariy ma'lumotlardan qofiya turlari: och qofiya va to`q qofiyani tushuntirishga yordam beradi.

Bu topshiriqda o`quvchilar bir necha guruhlariga bo`lingan holda ishtirok etishadi. Har bir guruhga alohida so`z beriladi. So`z berishda o`quvchilarning yoshi va sinfi inobatga olinishi lozim. Topshiriqni bajarish uchun ikki yoki uch daqiqa vaqt beriladi. O`quvchilar navbatma-navbat chiqib qofiyadosh so`zlarni sinf doskasiga yozib borishadi. Topshiriq oxirida eng ko`p qofiyadosh so`z topgan guruh g`olib bo`ladi. Yoki o`quvchilarga maqollardan namunalar beriladi va qofiyadosh so`zlarni topish vazifasi yuklanadi.

Topshiriq namunasi: “Ona bilan bola, gul bilan lola

Birinchi guruh: ona, bola

Ikkinchi guruh: gul, lola

Xulosa qilib aytganda, xalq maqollari yordamida o`quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirishda mehnatning ahamiyati kattadir. Bolalar o`z - o`ziga xizmat qilish, o`qiyotgan joylarini belgilash uchun bo`ladigan xatchup, qutichalar, sanash materiallari, daftar jildlari kabi o`zlari uchun foydali bo`lgan narsalarni



tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda bir - biriga yordam berish fazilatini tarbiyalashga katta e'tibor berish kerak. Chunonchi, sinf xonasini tozalash, maktab tomorqasida ishlash, sport maydonchasini supurish, o'zlaridan kichik o'quvchilar uchun foydali narsalar tayyorlash va boshqalar bu yoshdagi o'quvchilarning bajarish uchun kuchlari yetadigan ijtimoiy - foydali ishlardir. Umuman, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z mehnatlari bilan tevarak - atrofdagi boshqa odamlarga foyda keltirishlarini sekin - asta anglay boshlaydi. Bu esa bolalarda g'ururlanish, shodlanish va o'z ishidan mamnun bo'lish tuyg'ularini shakllantiradi. Aslida, aynan mana shu tuyg'ularni kichik yoshdagi o'quvchilarda mustahkamlanib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev.Sh.M.Yangi O'zbekiston strategiyasi.2021.
2. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari.2017
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-2008
4. Madayev.O,T.Sobitova.Xalq og'zaki poetik ijodi.-Toshkent,Sharq.2010
5. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari.2014
6. O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar.7-kitob.O'zbek folklorining epik janrlari.-T.:Fan,1981



PAXTANING YANGI NAVLARINI SINOVDAN O'TKAZILISH TARTIBI

Haqqulov Mehriddin Yunusovich

mexriddinhaqqulov@gmail.com

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti

“Pedagogika va umumiy fanlar” kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada seleksiyachi olimlar tomonidan paxtaning yangi navlarini sinovdan o'tkazishning ahamiyati va uni qanday tartibda o'tkazish kerakligi haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: rendomendatsiya usuli, delyanka, rayonlashtirish, yarovizatsiya muddati, fonologik kuzatishlar, elitalar, reproduksiya

Аннотация: В данной статье говорится о важности государственных испытаний новых сортов хлопчатника учеными-селекционерами и о том, как их следует проводить.

Ключевые слова: метод рандомизации, делянка, районирование, период возникновения, подчеркивание, фонологические наблюдения, элиты, воспроизводство.

Abstract: This article talks about the importance of state testing of new varieties of cotton by breeding scientists and how it should be conducted.

Key words: randomization method, delyanka, zoning, period of springing, underlined, phonological observations, elites, reproduction

Paxta butun dunyo bo'yicha keng qo'llaniladigan tola hisoblanib, uning yangi navlarini davlat sinovidan o'tkazish seleksiyachi olimlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim jarayondir. G'o'za seleksiyasi olimlari zararkunandalarga chidamli, suv va o'g'itni kam talab qiladigan, yuqori hosil beradigan yangi navlarni yaratish ustida doimiy izlanishlar olib bormoqda. Bu yangi navlarning eng yuqori sifat va kerakli standartlarga javob berishini ta'minlash uchun bir qator ilmiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yangi navlarning samadorligini oshirish uchun ularni davlat sinovlaridan o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Barcha kerakli testlar bajarilganligi va natijalar aniq bo'lishi uchun bu jarayon to'g'ri tartibda bajarilishi lozim.

Paxta tolasini davlat sinovidan o'tkazishning asosiy vazifasi: seleksiya orqali erishilgan yutuqlardan samarali foydalanish, yaratilgan yangi navlarni to'g'ri va aniq baholab, mahsulot hosildorligi va sifati kabi qimmatli belgilari bo'yicha “eng yaxshi”



deb topilgan navlarning duragaylarini mahalliyashtirish orqali Davlat reestriga kiritish va xalq xo'jaligida keng foydalanishga qaratilgan chora tadbirlardir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi olimlari tomonidan paxtaning yangi «Zangi-Ota-2», «Ishonch» va «Zafar» navlari ustida tajriba o'tkazish hamda ekish uchun patent olindi.

Fanlar akademiyasi xabariga ko'ra, paxtaning yangi istiqbolli «Zangi-Ota-2» navi: tezpishar, tola chiqimi va sifati yuqori, turli tuproq hamda iqlim sharoitiga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Hozirda bu nav Qashqadaryo viloyati "Yangi navlar urug'ligini ko'paytirish" fermer xo'jaligida ko'paytirilmoqda.

Paxtaning yangi istiqbolli «Ishonch» navi andoza navlarga qaraganda, suv tanqisligi, tuproq sho'rxokligiga bardoshli, tola sifati jahon standartlariga javob bera oladigan. Ishonch paxta navi hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatining suv tanqis bo'lgan hududlariga ekib ko'paytirilmoqda.

Paxtaning istiqbolli «Zafar» navi olingan natijalarga asosan respublikaning turli hududiy nav sinash shoxobchalarida tolaning sifat ko'rsatkichlari yuqori va barqaror bo'lganligini ko'rsatdi. Bu nav hozirgi kunda Farg'ona viloyatining sharqiy hududlarida yangi navlari urug'ligini ko'paytirish fermer xo'jaliklarida ekib ko'paytirilmoqda.

Erishilgan natijalar va ularning muhokamasi. Hozirgi kunda dala ishlab chiqarish sharoitlarida yangi paxta navlarining hosildorligiga, tezpisharligiga, tolasining sifati va tolaning pishiqligi bilan bozor talablarini qondirishi, zararkunandalar hujumi hamda turli kasalliklarga chalinmasligi, butalarning yotib qolmasligi, paxtaning o'sish davrining qisqa yoki uzun bo'lishi, mahalliy va mineral ozuqalarning o'sish farazlari bo'yicha berilishi muddatlari kabi eng muhim agrotexnik tadbirlar turli variantlar asosida sinovdan o'tkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq Xo'jaligi ekinlari urug'chiligiga oid ayrim normativ – huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga zid bo'lmagan holda.

Tajribalarda foydalanilgan usullar:

Randomizatsiya usuli - davlat testi protsedurasining birinchi bosqichi randomizatsiya usuli hisoblanadi. Bu usul dastlabki navdan tasodifiy bir qator o'simliklarni tanlab olish va ularni sinov uchun turli joylarga belgilashga oid tajribalarni o'z ichiga oladi. Bu natijalarning biror bir ma'lum joyga nisbatan bir xil bo'lmasligini ta'minlaydi.

Delyanka usuli - davlat testi protsedurasining ikkinchi bosqichi delyanka usuli hisoblanadi. Bu usul tanlangan o'simliklarni bahorda va yozda ikki xil joyga ekishni o'z



ichiga oladi. Bu turli iqlim sharoitida navlarning ko'rsatkichlarini taqqoslash imkonini beradi.

Rayonlashtirish usuli - davlat sinovini o'tkazish tartibining uchinchi bosqichi - rayonlashtirish usuli. Bu usul hududni turli zonalarga bo'lish va har bir zonani ma'lum bir navga belgilashni o'z ichiga oladi. Bu turli xil tuproq va iqlim sharoitlarida navlarning samaradorligini taqqoslash imkonini beradi.

Bahor davri usuli - to'rtinchi bosqichi bahorgi davr hisoblanadi. Bu davrda tanlab olingan paxta navlarining mahsuldorligi nazorat qilinadi va qayd qilinadi. Bu turli fasllardagi paxta navlarining ko'rsatkichlarini taqqoslash imkonini beradi.

Tagi chizilgan usuli - davlat sinovini o'tkazish tartibining beshinchi bosqichi ta'kidlangan usuldir. Bu usul tanlangan paxta navlarini har xil tuproq turlariga, masalan, qumli va qumloq tuproqlarga ekishni o'z ichiga oladi. Bu turli xil tuproq turlarida paxta navlarining ishlashini taqqoslash imkonini beradi.

Fonologik kuzatishlar - davlat test sinovi jarayonining oltinchi bosqichi fonologik kuzatishlardir. Bu usul tanlangan navlarning fonologik xususiyatlarini, masalan, barglarning rangi, hosilning shakli va o'simliklarning balandligini kuzatishni o'z ichiga oladi. Bu turli xil hududlarda va turli sharoitlarda navlarning samaradorligini taqqoslash imkonini beradi.

Elitalar - davlat sinovini o'tkazish tartibining yettinchi bosqichi elitani tanlash hisoblanadi. Bu usul davlat sinovi tartibida eng yaxshi ko'rsatkichlarga ega navlarni tanlashni o'z ichiga oladi. Keyinchalik bu navlar oldingilariga nisbatan yaxshiroq xususiyatlarga ega yangi navlarni ishlab chiqarish uchun keyingi naslchilik ishlarida foydalaniladi.

Ko'paytirish - davlat sinovi tartibining sakkizinchi bosqichi tanlangan navlarni ko'paytirishdir. Bu kerakli miqdordagi o'simliklarni etishtirish uchun tanlangan navlarni ko'paytirishni o'z ichiga oladi. Bu yaxshilangan xususiyatlarga ega yangi navlarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Paxtaning yangi navlarini yaratish tartibi:

1. Asosan paxta yetishtiruvchi mintaqalardagi jamoa xo'jaliklarida tuproq-iqlim sharoitlari bir xil bo'lgan hududlarda maxsus ajratilgan paxta navi sinash uchastkalarida amalga oshiriladi.

2. yangi navlarni sinash uchastkasining boshlig'i, yordamchisi, agronomi shu hudud yaqinida joylashgan jamoa xo'jaligi texnikasi va ishchi kuchidan to'liq foydalanishi mumkin.

3. Butun Respublika bo'yicha Davlat nav sinash uchastkalari har doim Qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi navlarini sinovdan o'tkazish davlat komissiyasiga



bo'ysunadi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi yangi navlarni qo'llashga joriy etish uchun tavsiyalar berish hamda shu bilan birga yangi paxta navlarini yetishtirish tartibiga muntazam ravishda e'tibor berib boradi.

4. Paxtaning yangi navlarini davlat sinovidan o'tkazishda ushbu ko'rsatgichlarga qarab baho beriladi:

- a) paxta xom ashyosining hosildorlik miqdori;
- b) umumiy terimdagi tolaning hosildorlik miqdori;
- c) kuzgi davr hosildorlik miqdori;
- d) birinchi sovuq tushguncha bo'lgan kunlardagi hosildorlik miqdori;
- e) paxtaning to'liq unib chiqishi (% hisobida);
- f) tezpisharligi, ya'ni ko'chat birinchi bargini chiqarganidan boshlab, 50% miqdorgacha, pishib yetilgan kunlar soni;
- g) ko'saklarning ochilish;
- h) turli xil kasalliklarga chidamliligi (ball);
- i) ob-havoning o'zgarishiga chidamliligi;
- j) ko'sakning kattaligi hamda o'girli (gramm);
- k) paxtaning ko'sakdan yerga to'kilishi miqdori;
- l) mashina terimiga chidamliligi;
- m) tolaning pishiqlik darajasi;
- n) tolaning uzunlik darajasi;

5. Olimlarning sinovlari orqali yaxshi natijalarga erishilgan, o'zining hosildorlik miqdori va turli xildagi kasalliklarga chidamliligi bilan alohida ajralib turgan paxta navlarini hududlarga tarqatish uchun tavsiya etiladi.

Nav pishish vaqtiga ko'ra 3 ta guruh bo'linadi: tezpishar, o'rtapishar, kechpishar. Har bir yangi g'o'za navi 2 yil muddatda kichik maydonlarga ya'ni to'rt qatorli seyalkada 21,3 metr uzunlikda 4 marotaba takroriy ekiladi. Agar yaxshi natijaga erishilsa, uchinchi yildan boshlab kattaroq maydonda ekila boshlanadi.

Nav sinash metodikasida yangi navlar sinov ishlarini kichik maydonlarda 4-6 takroriy ekish ko'rsatilgan bo'ladi. Buxoro viloyatining tekis va sho'rlangan iqlim sharoitida asosan 4 marotabadan takroriy ekish orqali yaxshi natijalarga erishilgan.

Har yili nav sinash davlat uchastkasida taxminan 40 - 50 nav ekiladigan urug'lik chigiti aloqa bo'limi orqali yuboriladi. Har biri nav ro'yxatdan o'tkazilib, alohida bir kilogrammik xaltachalarga solinib, qopning og'zi ip o'tkazilgan yorliq bilan bog'lanadi. Yorliqqa navning nomi yoziladi. Keltirilgan urug'lik chigit isitish xonalari oldidagi suv havzasiga solinadi.



Ikki kun davomida urug'lar yarovizatsiya muddatlarini o'tgandan so'ng, dalada oldin qo'riqchilar bilan ekish chizig'i va o'rni belgilanib, traktor seyalkalari urug' qadamasdan faqat marker yordamida chizib chiqiladi, shundan so'ng rendomizatsiya sxemasi bo'yicha navlarni maydonda joylashtirish loyihasi belgilangan holda, har bir nav alohida- alohida yerlarda ekiladi. Har bir navning ekilish joyiga yozuv yozilgan bo'lib nav bir takrorda 50 kvadrat metr joyga ekiladi. Agar har bir paxta navi 4 marotabadan ekilsa, bitta nav 200 kvadrat metr joyni egallashi lozim.

Ayrim tajriba dalalarida 20-25 tagacha paxta navlari ham sinalishi mumkin. Sinov natijalarining ijobiy bo'lishi ko'chatlarning tekis yetishtirib olinishi, ko'chat sonining qoldirilishiga, agrotexnik tadbirlarning sifatida bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish sharoitlarida katta delyankalarning maydoni 0,5-2,0 gektargacha va undan ham ortiq bo'lishi mumkin.

Paxta chigitlari ekib bo'lingandan so'ng bu maydonlarda fonologik kuzatishlar amalga oshiriladi:

- a) Umumiy sug'orishlar soni;
- b) O'g'it berish tartibi va muddatlari;
- c) Paxtani chekanka qilish muddatlarining hosildorlikka bo'lgan ta'sirini aniqlash;
- d) Birinchi terim jarayonida har bir navdan 40-45 kilogramm miqdorida paxta olinadi. Bundan esa kelgusi yilda ekish uchun urug'lik (chigit) ajratiladi. Mazkur urug'lik paxta tayyorlash korxonalariga dalolatnoma asosida topshiriladi.
- e) Har bir navning potentsiali navlar bo'yicha terib olingan paxta xom ashyosining miqdori va sifati bilan belgilanadi.

Yangi paxta navini sinash davlat uchastkasining dala jurnalidagi birinchi terim, ya'ni 30-sentabrgacha bo'lgan terim davri natijalari miqdori, birinchi sovuq tushguncha terib hosil miqdori, har bir ko'sakning og'irligi, pishib yetilguncha o'tgan kunlar hisobi, 60-65% ochilish fazasining muddatlari, ko'sakda qolgan va yerga to'kilgan hosil hamda ikkinchi terimi muntazam yozib yuboriladi.

Seleksiyachi olimlar boshchiligida har bir yangi paxta navining yakka tanlangan urug'lik paxtasi alohida maxsus qoplarga terib olinadi. Ushbu navlardan olingan urug'lik elitalar sifatida yetishtiriladi. Elitalar ekilgan maydondan olingan hosil keyingi yilda birinchi avlodga mansub bo'lib, R1 avlod deyiladi. R1 avlodni ekib olingan hosil ikkinchi ya'ni R2 avlod bo'ladi. R2 avlodni ekib olingan hosil R3 avlod bo'ladi.

Davlat nav sinash uchastkalariga paxta maydonlarida terimdan 15-20 kun oldin aprobatsiyadan o'tkaziladi. Ya'ni hosil oldindan chamalab ko'riladi va natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Nav tozaligi ushbu ko'rsatkichlar asosida iyul va avgust oyining oxirida o'tkaziladi:



- a) Bargning shakliga va kattalik darajasiga qarab;
- b) Bosh hosil shoxlarning tuklanishi miqdoriga qarab;
- c) Butaning shakliga va shoxlanishi miqdoriga qarab;
- d) Ko'sakning shakliga va yiriklik darajasiga qarab;
- e) Ingichka tolali paxta navlarining gul rangi qarab;

Nav tozaligini aniqlashda paxtaning turli xil kasalliklarga chalinishi ham hisobga olinadi. Nav sinash davlat uchastkasida mas'ul rahbar boshchiligida yakka tanlanib olingan urug'lik paxta urug'larini ko'paytirish uchun boshqa xo'jaliklarga tegishli hujjatlar asosida berilishi va urug'lik ko'paytirish ishlari ham shu yerning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish joizki, paxtaning yangi navlarini davlat sinovidan o'tkazish tartibi yangi navlarni yaratishda, seleksiyachi olimlar, mutaxassislar va agronomlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar muhim qadamdir. Ular har bir yangi paxta navi ustida bir necha bor tajribalar o'tkazib, agar kutilgan natijaga erishsalar davlat orqali ommaga taqdim etadilar. Jarayon randomizatsiya, delyanka, rayonlashtirish, bahor davri, tagiga chizilgan, fonologik kuzatishlar va elita usullarini tanlash, bundan tashqari tanlangan paxta navlarini ko'paytirishni o'z ichiga oladi. Bu paxta navlarining turli muhitdagi mahsuldorligini taqqoslash, keyingi naslchilik ishlari uchun eng istiqbolli navlarni tanlash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Ne'matov - Urug'chilik "Mehnat" 2003-y (215 bet) 56-61 betlar
2. H.Ne'matov-Buxoro paxtachilik istiqboli "Mehnat" 1997-y (294bet) 57-70betlar
3. J.M.Muhammedov, K.E.Eshmirzayev, A.O.Omonov - O'zbekistonda g'alla ekinlarini yetishtirish "Mehnat" 1996-y
4. T.S.Zokirov - Paxta dalasi ekologiyasi. "Mehnat" 1991-y
5. K.Bahromov, N.Xolmurodov, M. Otajonov - G'o'za navlari. "Mehnat" 1990-y
6. Gulyamov, A. A. (2024). [Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy sohalarida oilaning roli](#). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
7. www.google.uz
8. www.ziyonet.uz
9. <http://www.academy.uz/uz/news/view/511>
10. <https://lex.uz/docs/-5676745?ONDATE=09.06.2022>



MARKAZIY OSIYODA ILK DIPLOMATIK MUNOSABATLAR TARIXI

Haqqulov Mehriddin Yunusovich

mexriddinhaqqulov@gmail.com

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti

“Pedagogika va umumiy fanlar” kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O`rta Osiyoning qadimgi davlatlari o`rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi adabiyotlar tahlili orqali ochib berilgan. Shuningdek, Miloddan avvalgi I ming yillik birinchi yarmidayoq “Avesto”da diplomatik munosabatlarning paydo bo`lishi haqida ma`lumotlar mavjudligi to`g`risidagi malumotlar mazkur maqoladan o`rin olgan.

Tayanch so`zlar: yozma manba, Turon, parsua, aloqalar, savdo-sotiq, madaniyat, diplomatiya, davlat, xalq, massagetlar.

Markaziy Osiyo xalqlarining Midiya va Ossuriya bilan munosabatlari. Aftidan, miloddan avvalgi IX asrdan boshlab Kavkaz va Markaziy Osiyo hududi orqali Eron qabilalarining hozirgi Eron hududiga migratsiyasi boshlanadi. Bu yerda ular bir qancha qabilalar ittifoqini tuzadilar. Ulardan dastlabkisi Parsua hududining shimoliy-g`arbiy va Eronning janubiy-g`arbiy hududida Midiya davlatidir.

Midiya davlatining ilk hukmdori Deyok ismli shaxs bo`lib, davlatning eng rivojlangan davri Kiaksar (mil.avv. 625-585 yy) hukmdorligiga to`g`ri keladi. Kiaksar davrida Ossuriyaning bir qismi, shimoliy Mesopotamiya, Girkaniya, Parfiya, Areya, shu bilan birgalikda balki So`g`dning bir qismi va Markaziy Osiyoning janubiy qismi ham bosib olinadi.

Ktesiy Knidskiyning ma`lumotiga ko`ra, u Baqtriyaning bo`ysundirgan bo`lsa-da, bu ma`lumot shubhalidir. Aniqrog`i, Hindiston podsholigi chegarasi midiyaliklarning sak qabilalari bilan to`qnashgan Amudaryoning shimoliy-sharqiy tarafi bilan chegaralangandir.

Shunday qilib, bu shartnoma Markaziy Osiyoning miloddan avvalgi VII asr oxiri - VI asr boshidagi tarixiga oid dastlabki shartnoma edi.

Keyingi voqealar Kirning To`maris maslahatiga quloq solmaganligini ko`rsatadi, Sparangiz esa sharmandalikka chiday olmay o`z joniga qasd qiladi.

Shunday qilib, diplomatik munosabatlarning birinchi davrida Markaziy Osiyo xalqlari va Aleksandr Makedonskiy o`rtasida diplomatik munosabatlar masalasida tinchlik shartnomalari va harbiy ittifoqlar tuzish bilan tugallanadi. Istisno emaski,



bundan oldinroq diplomatik munosabatlarni olib boruvchi maxsus kishilar guruhi shakllangan edi.

Xitoy va G'arbiy hududlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'rnatilishining dastlabki sababi Markaziy Osiyodagi xunlar va yunon manbalarida toxarlar deb atalgan yuechjilar o'rtasidagi kurash edi. Bu kurashda yuechjilar mag'lubiyatga uchradilar va o'zlari egallagan Gansu hududini tashlab, Yettisuv hududiga joylashishga majbur bo'ladilar. Ammo bu yerda xunlar yuechjilarni quvib yetib, ularning yo'l boshchilarini o'ldiradilar, uning bosh suyagidan qadah tayyorlaydilar. Yuechjilar janubga, ya'ni Markaziy Osiyo tomonga qarab ko'chib, boshqa xalqlar bilan birga Yunon-Baqtriya davlatini qulatilishda ishtirok etadilar va ularning avlodlari ko'p yillardan keyin Buyuk Kushon imperiyasiga asos soladilar.

Chjan Syan Baqtriyada bir yilga yaqin bo'ladi. Hech nimaga erisha olmay janubiy yo'l orqali Xitoyga qaytishga harakat qiladi, ammo yana xunlarga asir tushib qoladi. Chjan Syan o'zaro kurashdan foydalanib, xotini Tanganfu va hamrohlari bilan bir yildan keyin qochib, Xitoyga borishga muvaffaq bo'ladi. Uning g'arbiy hududlarga sayohati 13 yil davom etadi. Sayyohat natijasida uning yuz kishilik missiyasidan o'zi va bitta hamrohi qaytib kelishga muvaffaq bo'ladi.

Chjan Syan axborotida Markaziy Osiyo davlatlari: Dovon, Usun, Qang', Dahyu, Yantsay, Katta Yuechjilar, ularning joylashgan geografik hududlari, poytaxtlari, yo'llari va bir-biridan qanchalik uzoqda joylashganliklari, mashg'ulotlari, an'analari, aholisining soni va qo'shini haqida ma'lumotlar keltiradi. U axborotida Qang' va Katta Yuechjilar davlatlari ijaraga olinishi mumkin bo'lgan kuchli armiyaga ega ekanliklarini, agar ularni ko'ndirishga muvaffaq bo'linsa, Xitoy hududini 10000 liga kengaytirishga muvaffaq bo'linishi mumkinligi haqida ham ma'lumot keltiradi.

Farg'onaga juda ko'plab davlatlar qiziqishining ortishi Xitoyning ham bu yerga ta'sir ko'rsatishga harakat qilishiga sabab bo'lgan. Miloddan avvalgi 140-87-yillarda Xitoyda U-di hukmronlik qilgan. U Sharqiy Turkistonni bosib olgach, O'rta Osiyoning hosildor yerlari orqali o'tishi mumkin bo'lgan "Buyuk ipak yo'li"ni tashkil etishga harakat qilgan. Bu maqsadini amalga oshirish maqsadida Chjan Syan missiyasini O'rta Osiyo orqali o'tishi mumkin bo'lgan yo'llar va u yerdagi xalqlar haqida ma'lumot olish uchun jo'natadi. Chjan Syan Tyanshan va Farg'onada ikki marta: miloddan avvalgi 136-128-yillar va 115-yilda bo'ladi. Chjan Syan Farg'ona hududi va usunlar, Qang' va Dahyu davlatlari haqida to'liqroq ma'lumot olib keladi.

Xitoy-dovon urushidan keyin Xitoyning G'arbiy o'lkalar bilan o'zaro diplomatik aloqalari yanada kuchayadi. "Buyuk Xan uyining tarixi" nomli manbaga ko'ra,



imperator U-di davrida Markaziy Osiyoning turli davlatlariga 10 ga yaqin elchilik missiyalari jo'natilgan.

Bizga ma'lumki, qadimgi Sharq dunyo tamaddunining markazi hisoblanadi. Bu yerda eng qadimgi sivilizatsiyalar, shaharlar, shahar-davlatlar, ilk markazlashgan davlatlar paydo bo'lgan. Bunday sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi o'z navbatida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning ham shakllanishiga olib kelgan. Eng qadimgi davlatlararo munosabatlar miloddan avvalgi III ming yillikdayoq Mesopotamiyadagi "en", ya'ni shahar-davlatlar o'rtasida boshlangan. U davrdagi xalqaro munosabatlar boshlangan. Davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar bilan birgalikda harbiy-siyosiy razvedka (josuslik) paydo bo'la boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бернштам А.Н. Древняя Фергана. Ташкент. 1951.
2. История международных отношений // под редакцией О.А.Колобова. Том I. Н.Новгород. 2001.
3. Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент. 2005.
4. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. Фарғона. 2013.
5. Хайитов, Жахонгир Шадмонович. "ИСТОРИЯ О РАСПРОСТРОЕНИИ ДЕКОРАТИВНЫХ ДЕРЕВЬЕВ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ (В КОНЦЕ XIX-В НАЧАЛЕ XX В.)." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития.* 2019.
6. Gulyamov, A. A. (2024). [Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy sohalarida oilaning roli](#). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.



BUYUK IPAK YO`LI – TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILI

Gulyamov Alisher Azizovich

Turkiston yangi innovatsilar universiteti o'qituvchisi
aligulyamov1997@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining hozirgi davrda rivojlangan sohalar sirasiga kirib, mamlakatlar iqtisodiyotining ijobiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shayotganligi, yurtimizda ham shu sababli turizmga keng yo`l ochib berilayotganligi va qadimgi Buyuk Ipak yo`lining o`rganilishi turizm rivojiga ta`siri masalalari tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: turizm, biznes, karvon yo`llari, valyuta, nodir mahsulotlar.

O`zbekiston yangi XXI asrga shaxdam qadamlar bilan kirib keldi. XXI asr – turizm va sayyohlik asri bo`ladi deb bashorat qilinmoqda. XXI asrda turizm o`zining salmoqli hissasi bilan respublika budjetida katta o`rin egallashi kutilmoqda. Bunga respublikamizda har tomonlama imkoniyatlar va asoslar yetarli. Faqat zamonaviy milliy turizmni rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etib, turizm sohasini yuqori pog`onalarga ko`tarish imkoniyatini yaratishimiz kerak. O`zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi, bu soha qadimdan mavjud bo`lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa milliy turizmni yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilashdir. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o`shish sur`ati 8%-10% gacha boradi. Bu esa mamlakat turizm sohasining yoki milliy turizmning qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev turizm sohasini rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri ekanligini alohida ta`kidlab, “Turizmni davlat siyosati darajasiga ko`tardilar”. Rivojlangan mamlakatlarda turizmdan olinadigan valyuta tushumlari butun eksport hajmining 10-35% ni tashkil qiladi. Turizm sohasi uchun jadal rivojlanish xos bo`lib, qator mamlakatlarda yillik o`shish sur`atlari yuqoriligi (24% gacha) bilan tavsiflanadi.

Dunyo yaralganidan buyon insoniyat rivojlanishi uchun turli xil o`zaro munosabatlar va aloqalar zarur omil bo`lgan. Qadimgi transkontinental aloqalar bronza davrida ayniqsa rivojlangan. Chunki bronza qotishmasini tayyorlash uchun kerak bo`ladigan mis, qalay, qo`rg`oshin, rux singari nodir metallar odatda bir mintaqada uchramaydi. Shu sababli bronza davrida yashagan insonlar bu metallarga ega bo`lish uchun o`zaro aloqa yo`llarini rivojlantirishgan. Masalan, O`rta Yer dengizi mintaqasidagi asosiy mis konlari Kipr orolida mavjud bo`lib, mis asosan shu yerdan olib ketilgan. Orol nomi ham yunoncha “Cupros” ya`ni “Mis” ma`nosini anglatadi. Xuddi shunga o`xshab qadim zamonlarda Afg`onistondan O`rta Osiyo hududi orqali shimol tomonga qalay va qo`rg`oshin, Ural tog`lari etaklaridan esa janubiy o`lkalarga mis tashib



o`tilgan. Bu haqida arxeolog Y.F.Buryakov Samarqand viloyatidagi Nurafshon tumani hududidagi o`sha davrga mansub eski metallurgiya markazlarini o`rganib, shu xulosaga kelgan.¹

Aynan o`sha davrlardan boshlab O`rta Osiyo mintaqasi muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. Jumladan, Vatanimiz O`zbekiston Osiyo qit`asining markazida, ikki daryo oralig`ida joylashgan bo`lib, Afrika, Oltoy, O`rta Yer dengizi bo`ylari, Hind daryosi vohasi, Yevropa qit`asi, Ural tog`lari va Ural daryosi bo`ylarini bog`lab turuvchi o`ziga xos chorraha, ko`prik vazifasini bajargan.

Ma'lumki qadimdan turli xalqlar va mamlakatlar bir-birlari bilan elchilik savdo-sotiq aloqalarini, madaniy siyosiy va ilmiy aloqalarni yo`lga qo`yganlar. Tabiiyki bunday hamkorlikni yo`lga qo`yishda mamlakatlarni bog`lab turgan karvon yo`llari asosiy rol o`ynagan. Jumladan, miloddan avvalgi 3-2 ming yillikda vujudga kelgan qadimgi La'l yo`li miloddan avvalgi IV-V asrda Kichik Osiyoni Eron bilan bog`lab turgan Shoh yo`li, miloddan avvalgi II asrda ochilgan Buyuk ipak yo`li kabilar xalqlar o`rtasidagi aloqa vositasi bo`lib kelgan.

Bunday yo`llarning eng asosiysi Buyuk ipak yo`li hisoblanadi. Qadimda va o`rta asrlarda bu yo`l Sharq va G`arbni bog`lagan. U mamlakatlar o`rtasida nafaqat savdo balki ilmiy madaniy siyosiy aloqalarni bog`lashga xizmat qilgan. Yo`l bo`yida qo`rg`on va shaharlar, bozorlar karvonsaroilar bunyod bo`lgan. Shu jihatdan bu yo`l Osiyo va Yevropa xalqlarning hayotida muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Biroq asrlar davomida yer yuzida bo`lgan iqtisodiy siyosiy o`zgarishlar fan texnika yangiliklari bu yo`lning ahamiyatini pasaytirdi.

Miloddan avvalgi VIII-V asrlarda Buyuk ipak yo`lining Choch, So`g`d, so`ngra Poykent, Marv bo`ylab Eron Xurosonga eltuvchi shimoliy qismi muhim ahamiyat kasb etgan. Ipak bu paytda uch buyuk davlat: Vizantiya imperiyasi Sosoniylar Eroni va Turk xoqonligi o`rtasidagi iqtisodiy raqobat maydoniga aylangan. Biroq bu ipak yoli uzoq vaqt mavjud bo`lmagan, chunki VI asrning 2-yarmida Xitoy ipak ishlab chiqarish bo`yicha monopol huquqdan mahrum bo`lgan, asr oxirida Vizantiya shu qadar ko`p ipak yetishtirar ediki uni Xitoydan keltirishga ehtiyoj qolmagan. Vizantiya ipak sanoati barpo etilishi va uni Kavkaz va O`rta dengiz mamlakatlariga tarqalishi bilan Buyuk ipak yo`lining tarixi tugaydi.² Keyingi asrlarda Mo`g`ullar saltanati, Temuriylar davrida Sharq bilan G`arbni bog`lovchi karvon yo`li bo`lgani haqida ko`plab ma'lumotlar mavjud bo`lsada lekin "Ipak yo`li" nomini shartli ravishda qo`llash mumkin, chunki yo`lning ahamiyatini ipak emas boshqa Tovar va maqsadlar belgilar edi.

O`zbekiston ipak yo`lining markazida bo`lganligi sababli Sharq va G`arb o`rtasidagi tijoratda faol ishtirok etgan. XI asrda O`rta Osiyoga sayohat qilgan arab sayyohi Abu Hamit al Qarnatiyning guvohlik berishicha bu yerdan karvonlar Eron va Arab davlatlariga to`xtovsiz qatnab turgan. Xorazmliklar qovunlarni maxsus tayorlangan qo`rg`oshin g`iloflarda xalifaga olib borar ekanlar, Samarqand qog`ozi

¹Hasanov A.O. Buyuk ipak yo`li me'morchiligi.(Monografiya).-T.: "Fan va texnologiya", 2016, 3 b.

² O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashryoti. 2-jild. 2002. -B.320-321.



Buxoro gazlamalari butun Sharqqa tarqalgan. Temuriylar zamonida karvonlar qatnovi keng yo`lga qo`yilib xafsizligi taminlangan.³

O`rta Osiyo hududida bevosita dengiz portlariga olib chiqadigan suv yo`llari mavjud bo`lmaganligi sababli O`zbekiston uchun quruqlik yo`llari juda muhim sanaladi. Bu haqda O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bunday degan edi: "...O`zbekiston o`zining go`zal tabiati, ko`hna shaharlari, me`moriy obidalari, betakror qadimiy madaniyati, fe`li keng, mehmondo`st kishilari bilan hamisha o`zga yurt odamlarini o`ziga tortib kelgan. Bu yurt orqali juda qadim zamonlardan boshlab turli mamlakatlarga savdo karvonlari o`tgan. Amudaryo va Sirdaryolar orasidagi bu ajib jannatmakon diyor tillarga tushgan. O`zaro savdo va madaniy aloqalar shaharsozlik va me`morchilik rivojini yanada yuqori bosqichga ko`targan".⁴

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so`ng jahon hamjamiyatida o`z munosib o`rnini egalladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan quruqlik va havo transporti aloqalariga keng yo`l ochib berilayotganligi davlatimiz mavqeyining kundan kunga oshib borayotganligini ko`rsatadi. Birgina turizm sohasining rivoj topib borayotganligi, yurtimizga kelayotgan sayyohlar sonining tobora ortib borayotganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Bugungi xalqaro integratsiya jarayonlarida qadim savdo yo`llarini tiklash zaruriyati tug`ulmoqda. Buyuk ipak yo`lining tiklanishi davlatlarni iqtisodiy ma`naviy, siyosiy jihatdan yaqinlashtirishi ayon.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini Xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirishda xususiy turistik korxonalarining faoliyat doirasini yanada kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish borasida talaygina siljishlarga erishilmoqda. Hozirgi kunda, mamlakatimizda 750 dan ortiq kichik va o`rta biznes subyektlari, 10 dan ortiq xususiy turistik korxonalar turizm sohasida faoliyat ko`rsatayotganligini ko`rish mumkin.

Hozirgi davrda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholini ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda raqobat, sifatli xizmat, ayniqsa, yangi ish o`rinlarini ochish muhim rol o`ynashini bilamiz. Shu sababli har qanday yangi iqtisodiy-ijtimoiy tarmoqlar, yangi ish o`rinlari ochish imkoniyati va undan samarali foydalanish davr talabi bo`lib kelayotganidan xabarimiz bor albatta. Turizm sohasi jahondagi eng ko`p foyda keltiruvchi biznes ko`rinishlaridan biriga aylangan. Turizm jahonning qariyb barcha rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo`lib, dunyoning ko`pgina qoloq mamlakatlarida ham tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo`jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo`jaligi, iste`mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o`z o`rniga ega bo`lmoqda. Iqtisodiyotimizda turistik resurslardan samarali foydalanishda sohada yangi ish o`rinlari ochish katta ahamiyatga ega. XX asr 90-yillarining boshlaridan hozirgi

³ Muhammadiyev N. Dunyoga ochilgan yo`llar // Xalq so`zi. 1999.-28-may.

⁴ Qodirov B.A. Davr talablariga mos avtoturizm me`morchiligi. // Sog`lom avlod uchun // 1999, 2-son-6-7 b.



kunga qadar mazkur sohaga kiritilgan investitsiyalarni o`rtacha yillik o`shish sur`ati 30 foizni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda har 16 ish o`rnidan biri turizm tarmog`i zimmasiga to`g`ri keladi. Jahon eksportida turizm neft va neft mahsulotlari hamda avtomobillar eksportidan so`ng uchinchi o`rinni egallaydi.⁵

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. М.: Финансы и статистика, 2000. –С.3.
2. Muhammadiyev N. Dunyoga ochilgan yo`llar // Xalq so`zi. 1999.-28-may.
3. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashryoti. 2-jild. 2002. -B.320-321.
4. Hasanov A.O. Buyuk ipak yo`li me`morchiligi.(Monografiya).-T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 156 bet.
5. Qodirov B.A. Davr talablariga mos avtoturizm me`morchiligi. // Sog`lom avlod uchun // 1999, 2-son.
6. Gulyamov, A. A. (2024). [Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-madaniy sohalarida oilaning roli](#). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.

⁵ Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. М.: Финансы и статистика, 2000. –С.3.



BUXORO BUYUK IPAK YO`LIDAGI SHAHAR

*Gulyamov Alisher Azizovich – Turkiston yangi
innovatsilar universiteti o`qituvchisi
aligulyamov1997@mail.ru*

Annotatsiya: Qadimdan O`rta Osiyo sharqning eng muhim strategik ahamiyatga ega bo`lgan grografik hududi hisoblanadi. O`rta Osiyo qadimgi Xitoyi Eron, Hindiston, Yaqin Sharq bilan bog`lab turadigan ko`prik bo`lgan. Bu mintaqalarni o`zaro bog`lab turadigan yo`l esa tarixda Buyuk Ipak yo`li deya nom qoldirgan. Buxoro O`rta Osiyoda joylashgan qadimiy va navqiron, juda boy madaniyatni o`zidan meros qoldirgan ko`hna shahar bo`lib, aynan qadimgi dunyoning asosiy savdo yo`li, Buyuk Ipak yo`lida joylashgan.

Kalit so`zlar: Savdo-sotiq, Buyuk Ipak yo`li, O`zbekturizm, sayyohlar, tarixiy obidalar, turizmdagi muammolar, sayyohlar taassurotlari.

Buyuk ipak yo`li o`tgan qadimiy shahar Buxoroi sharifni bejizga sharqningmo`ji zasi, deya atamaydilar. Axir u ochiq osmon ostidagi muzey shaharlar sirasiga kiradi, shuningdek, uning o`tmishda ilm, madaniyat-ma`rifat, hunarmandchilik va savdo-sodiq markazi bo`lganligi bilan har qancha faxrlansak arziydi. Azal-azaldan Buxoroda yaqin va uzoq mamlakatlardan kelgan savdogar-u xaridorlar, sayyohlar-u ziyoratchilarning oyog`i uzilmagan. Barcha davrlarda ham shahardagi qadimiy me`moriy obidalar keluvchilarning diqqat e`tiboriga tushib, ularni hayratga solgan va hali hamon hayratlantirib kelmoqda. Mustaqillik yillari davomida ushbu makonda sayyohlik sohasi keskin o`sdi. Davlatning har tomonlama ko`magi bilan ko`pgina me`moriy obidalar qayta tiklandi. Shuningdek “Ko`hna va boqiy Buxoro” me`moriy kompleksi va yangi bog`lar yaratildi. Madaniy merosga bo`lgan bunday yuksak ehtirom haqida faqat orzu qilish mumkin.

Bugun “O`zbekturizm” milliy kompaniyasining Buxoro mintaqaviy bo`limi xodimlari har yili Pekin, Berlin, London, Tokio, Parij, Nyu-York va dunyoning ko`plab boshqa shaharlarida o`tadigan turli yarmarkalarda ishtirok etib kelishmoqda. Bir vaqtning o`zida, yangi zamonaviy mehmonxonalar qurilishi va qayta ta`mirlash ishlari davom etayotir, bu esa viloyatning turistik salohiyati o`shishiga xizmat qilmoqda.

Jahonga o`zining qadimiy yodgorliklari bilan tanilgan Buxoroning turistik salohiyati nihoyatda yuqori. Bu zaminda turizmni yanada rivojlantirish, uning infratuzilmasini takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Ayni paytda



viloyatda sayyohlarni yuqori saviyada kutib oladigan 70 ga yaqin mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda, aeroportning yangi terminali foydalanishga topshirildi, turistik markazlarga eltuvchi yo'llar rekonstruksiya qilinib, madaniy va tarixiy ob'yektlarda ta'mirlash ishlari jadal olib borilmoqda. Bir so'z bilan aytganda shaharning iftixori sanaluvchi aksariyat tarixiy obidalarning to'liq bir ansambl tarzida ekanligi xorijiy va mahalliy turistlarni doimo o'ziga jalb etib kelmoqda.

“Sayyohlar bir bor ko'rish niyatida bo'lgan O'zbekistonning qadimiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent o'z jozibadorligi bilan ularni o'z orzu qilganlaridan ham ulug'vor ekanligini namoyish etadi va olam-olam taassurot baxsh etadi, - deydi Italiyalik sayyoh Luka Santarelli. - Buxoro– bu madaniyatlar chorrahasi, o'n beshinchi asrning o'ziga xos Nyu-Yorki. Bu ulug'vor shahar to'g'risidagi afsonalar ko'plab shoirlar, yozuvchi va sayyohlarning asarlarida ta'riflangan, abadiyatga muhrlangan”.

«... yurtingiz ko'hna madaniyat va sivilizatsiya chorrahasida joylashgan. Qadimiy shaharlaringiz va qadriyatalaringiz ko'xna tarixingiz haqida so'zlab turibdi. O'zbek xalqi samimiy va mehmondo'stdir. Mamlakatingiz ana shu boy madaniyati, urf-odatlarini va an'analarini kelajak avlodga bekamu-ko'st yetkazib berishga alohida e'tibor qaratayotgani, bu yo'lda muhim chora-tadbirlarini amalga oshirayotgani muhimdir.¹»

Kelayotgan sayyohlar sonining o'sib borishi, ularning Buxoroga qiziqishi natijasida shahrimizda qadimiy hunarmandchilik, noyob kasblar qayta tiklandi. Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 1000 dan ortiq hunarmandlarning qo'llari bilan yaratilayotgan mahsulotlar butun dunyo bo'ylab xalqimizning boy tarixini targ'ib qilmoqda. Natijada ko'plab hunarmandlar avlodlarimizning unutilib ketayotgan kasblari va asriy an'analarini davom ettirish bilan birga bundan yaxshigina daromad ham olmoqdalar.

Mustaqillikdan ilgari Buxoroga ayrim xorijiy mamlakatlardan sayyohlar tashrif buyurib, ularning aksariyati sotsialistik mamlakatlardan edi. Bugun kunda Buxoroga butun dunyo mamlakatlaridan sayyohlar tashrif buyurishmokka. Jumladan, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Avstriya, Angliya, Xitoy, Malayziya, Indoneziya, AQSH, Janubiy Amerika xatto, Avstraliya va Afrikadagi ko'plab mamlakatlardan sayyohlar tashrif buyurmoqdalar.

1991-yilgacha o'zbek xonadoni, tarixi, madaniyati haqida butunlay tushunchaga ega bo'lmagan sayyohlar bugungi kunda yurtimizning uziga xos, ming yillik tarixi, madaniyati tugrisida tasavvurga ega bulib, milliy bayramlarimiz va to'y-

¹YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Krista Pikkat. Turizm sohasida yetuk kadrlarni tayyorlash/O'zbekiston Iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil. B.30.



marosimlarimizda ishtirok etib, xalqimiz azaliy urf-odatlarining butun dunyoga yoyilishiga hissa qo`shmoqdalar. Bunda har yili o`tkazilayotgan “Ipak va ziravorlar” festivali, “Palov sayli” singari madaniy tadbirlar alohida o`rin egallaydi. O`z navbatida viloyatimiz fuqarolari ham dunyo kezib, xorijiy mamlakatlar bilan do`stona aloqalarni tobora kengaytirmoqdalar².

Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishning ishga solinishi lozim bo`lgan katta imkoniyatlari mavjud bo`lib, turizmning biznes, konferensiya, madaniy-bilish, ekologik, cho`l, ekstremal, tibbiy, folklor-etnokrafik turizmi singari ko`plab turlarini taklif qilish shart-sharoitlari ham mavjud. Hududdagi reaksiyon resurslar nisbatan qisqa muddat davom etadi. Mavjud imkoniyatlardan to`liq foydalanish uchun esa, turizm sektoriga ko`plab malakali kadrlar tayyorlash, sohani yetuk xodimlar bilan muntazam ta`minlab borish talab etiladi.

Viloyatda ichki turizmni rivojlantirishga ham katta ahamiyat berilmoqda, chunki ko`pchilik odamlarda yurtimiz tarixini aks ettiruvchi tarixiy obidalar, shuningdek respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng barpo etilgan inshootlarni ko`rish, ulardan zavqlanish imkoniyati bo`lmagan. SHuni hisobga olib, jonajon respublikamizning Toshkent, Samarqand, Xiva, SHahrisabz va Buxoro shaharlarini o`z ichiga olgan sayyohlik yo`nalishlari tayyorlandi. Buxoro viloyatida joylashgan 7 pir qadamjolariga respublikamiz va viloyatimiz aholisini ziyoratga olib kelish bo`yicha alohida yo`nalishlar ishlab chiqildi³.

Ulug` mutafakkirlar yetishib chiqqan qadim Buxoroni ko`rish sharafiga muayassar bo`lganimdan baxtiyorman, – deydi braziliyalik Nazaret Serpa. – Shaharning ozodaligi meni juda hayratga soldi. “Asrlar sadosi” festivaliga taqdim etilgan milliy usta va hunarmandlar tomonidan yaratilgan amaliy san`at namunalarining yuqori sifati, betakror va noyobligi tahsinga loyiq. O`zbekistondagi barcha ishlar, avvalo, inson manfaatlarini ta`minlashga xizmat qilayotganining guvohi bo`ldim.

Barchaga ma`lumki, Buxoro O`zbekistonning turistik markazlaridan biri bo`lib hisoblanadi. “O`zbekturizm” MK ning ma`lumotlariga ko`ra 2012 – yilda Buxoroga 100 000 dan ortiq xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Manbalarda qayd etilishicha, Buxoroga (nafaqat xorijiy turristlar) 1 mln.dan ortiq sayyohatchilar tashrif buyurgan. Umumiy sayyohatchilar soni 2007 –yilda 903 000, 2008 – yilda 1 069 000, 2009 – yilda 1 215 000, 2010 – yilda 975 000 kishini tashkil etgan. Yuqorida ko`rsatilgan, sayyohlarning umumiy sonidan yarmi – turistlar hisoblanadi, qolganlari ish va boshqa

²O`zbekturizm MK Buxoro bo`linmasi boshlig`i SH.Mahmudovning O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnaliga taqdim etgan ma`lumoti. 2014-yil yanvar.

³O`zbekturizm MK Buxoro bo`linmasi boshlig`i. SH.Mahmudovning O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnaliga taqdim etgan ma`lumoti.2014-yil yanvar.



maqsadlar yuzasidan kelib turistik infrastruktura va xizmatlardan foydalangan. Buxoroga tashrif buyuradigan turistlar asosan Buxoroning qadimiy obidalari va muzeylarini, shahar atrofidagi yodgorliklarni tomosha qilish uchun keladi. Buxoro o'zining joylashuviga ko'ra, "Buyuk Ipak Yo'lining" asosiy qismida joylashgan bo'lib, O'zbekistonga tashrif buyurgan har bir turist dasturida asosiy o'rin egallaydi va xorijiy turistlar bu shaharda o'rtacha 2 – kunlarini o'tkazadilar

So'nggi yillarda Buxoro viloyatida xalqaro va mahalliy turizm oqimining barqaror ravishda oshib borayotganligi kuzatilmoqda. 2013-2014 yillar uchun statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, sohada faoliyat yuritayotgan tashkilotlar soni ko'pligi nutqai nazaridan etakchilikni Tunash uchun boshpanalar egallaydi. Tunash uchun boshpanalarning hissasi sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarining 79 %ini tashkil etadi.

*Buxoro viloyatida turizm, mehmondorchilik va sog'lomlashtirish tashkilotlarining soni*⁴

	2011	2012	2013
Turizm va turoperatorlik tashkilotlari soni	13	17	14
Tunash uchun boshpanalar soni	59	74	70
Sanatoriy-kurort tashkilotlarining soni	6	5	3
Dam olishni tashkil etuvchi korxonalar soni	2	2	2

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ablat Xo'jayev. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar //I-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2007. –209 bet.
2. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.-Toshkent, 2002.
3. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. М.: Финансы и статистика, 2000. –С.3.
4. Muhammadiyev N. Dunyoga ochilgan yo'llar // Xalq so'zi. 1999.-28-may.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashryoti. 2-jild. 2002. -B.320-321.
6. Hasanov A.O. Buyuk ipak yo'li me'morchiligi.(Monografiya).-T.: "Fan va texnologiya", 2016, 156 bet.
7. Qodirov B.A. Davr talablariga mos avtoturizm me'morchiligi. // Sog'lom avlod uchun // 1999, 2-son.
8. Gulyamov, A. A. (2024). [Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy sohalarida oilaning roli](#). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.

⁴Buxoro viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.



OVERCOMING LANGUAGE BARRIERS: THE COMPLEXITIES OF TRANSLATING UZBEK GRAMMAR INTO ENGLISH

Anvarjonova Zarifaxon Abrorjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti, filologiya va tillarni o'qitish :ingliz tili
yo'nalish, talaba*

zarifaanvarjonova12@gmail.com +998903633092

ORCID ID 0009-0002-2357-4528

Abstract: Navigating the challenges of grammatical translation from Uzbek to English encompasses a range of intricate linguistic hurdles. These challenges include delving into the complexities of verb conjugation, where Uzbek's agglutinative nature and rich system of suffixes convey nuances of tense, aspect, mood, person, and number within verbs. The translation process also grapples with Uzbek's elaborate noun case systems, which indicate grammatical functions such as subjects, objects, possession, and relationships through suffixes, contrasting with English's reliance on word order and prepositions for similar clarity.

Key words: verb conjugation, noun, case system, definiteness, articles, prepositions, pronouns, cultural context, idiomatic expression.

Ma'lumki, ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasi hisoblanadi. Bu fanning asosiy vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini yanada to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Binobarin, jamiyatda til insonlar orasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari orqaligina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Badiiy adabiyot ta'lim bosqichlarida ham san'atning bir turi, ham o'quv predmeti sifatida o'rganiladi. Shunga ko'ra o'quvchilarga adabiyot fanining so'z san'ati sifatida o'ziga xosliklari, uning yashash tarzi, paydo bo'lish shakllari, takomillanish qonuniyatlari ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'rgatiladi. Yoshlikdan kitobga bo'lgan munosabatni ijobiy rivojlantirishda maktabgacha bolalar kitobxonligi badiiy adabiyotdagi muhim mohiyat va mazmunni, ularda aks etgan nafosatni his qilishga alohida urg'u beriladi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham birgalikda o'sib boradi. Maktabning vazifasi tilni insonlar o'rtasidagi munosabatning shakllangan nozik quroliga aylantirish sanaladi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati kishini intellektual va ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi yordamida har tomonlama barkamol shaxsni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Natijalar:

Ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta'lim jarayonini tashkil qilish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar yordamida faoliyat yuritadi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu o'quvchilarga ta'limning yangicha tizimini va mohiyatini rivojlantirish uchun quyidagilar kerak: o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga



muvofiq tarzda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy qilish; ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik tomondan ta'minlash va boshqalar.

Muhokama:

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot joylashuvini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzluksiz ta'limni ta'minlash to'g'risidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq qilish o'quvchilarga ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan jiddiy vazifalardan sanaladi. Ona tili o'qitish metodikasi psixologiya va pedagogika axborotlariga ham tayanadi. Metodikaning muammolarini hal qilishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari metodikaning metodologik asosi sanaladi. Pedagogik psixologiya insonga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi. U o'quvchilarda tafakkurning rivojlanishini tadqiq etadi, aqliy faoliyat usullari va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ona tilini o'qitish fani oddiy nazariy asoslar to'plami emas, balki bizni samarali va qiziqarli o'rganish tajribasini yaratishga yo'naltiradigan dinamik va takomillashayotgan sohadir. Ta'limni tadqiqotga asoslangan amaliyotga asoslash va o'qitish usullarini individual ehtiyojlarga moslashtirish yordamida o'qituvchilar tilga bo'lgan muhabbatni uyg'otishi va o'quvchilarga ishonchli va malakali muloqotchilar bo'lishga yordam berishi mumkin. Ona tilini o'rgatish fanini o'zlashtirib, o'quvchilarni o'z ona tilida ravon muloqotchi, o'ziga ishongan shaxslar va o'z jamoalarining faol a'zolari bo'lishlari mumkin. Samarali til ta'limi sari sayohat davom etmoqda, lekin birgalikda ishlash va tadqiqot va innovatsiyalar kuchini qamrab olish yordamida hamma o'quvchilar til kuchi orqali rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan kelajakni yaratishlari mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev, Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent «NOSIR» nashriyoti. 2009
2. Jo'rayeva Nasiba. Boshlang'ich sinflarida ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari. Academic research in educational sciences - 2021.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi“, 1992.
4. Yunusov Q. Ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruza matnlari. –Andijon, 2004.



IJTIMOIY KONFLIKTNING OQIBATLARI (FUNKSIYALARI)

CONSEQUENCES (FUNCTIONS) OF SOCIAL CONFLICT

ПОСЛЕДСТВИЯ (ФУНКЦИИ) СОЦИАЛЬНОГО КОНФЛИКТА

Mamasaidova Durdona Quvvatovna

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: durdonaquvvatovna@gmail.com

Qahhorova Feruza Yorqin qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: feruzaqahhorova03@gmail.com

Ilmiy rahbar: Abbassova Maftuna Subxanovna

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan ijtimoiy konflikt va ijtimoiy konfliktning oqibatlari ya'ni funksiyalari haqida aytib o'tilgan. Avallo konflikt nima va unga qanday ta'riflar berilganligi haqida ham aytib o'tildi. Yana tarixda insonlar orasida qanday ziddiyatlar kelib chiqqanligi haqida ham aytib o'tilgan. Insonlar orasidagi o'zaro ziddiyatlar oqibatida qanday muammolar kelib chiqishi va bunga misollar keltirib o'tilgan. Ijtimoiy konfliktlarga va uning ortidan paydo bo'ladigan sabab va oqibatlariga ham to'xtalib o'tilgan, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarini markazga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish yosh avlodlarimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalash zarurligi haqida ham gap borgan.

Kalit so'zlar. Davlat, jamiyat, insonlar, konflikt, qonunlar, to'qnashuv, kurash, ziddiyatlar, xalq, ijtimoiy, yoshlar, sabab va oqibatlar, inson.

Abstract: This article mainly talks about social conflict and the consequences of social conflict, i.e. functions. Avallo was also told about what the conflict is and how it is defined. It has also been mentioned about the conflicts between people in history. What kind of problems arise as a result of mutual conflicts between people and examples of this are given. Social conflicts and their causes and consequences have been touched upon, putting them in the center of the spiritual and educational work being carried out in our country today, raising them to a new level. there was also talk about the need to raise our generations to be mature worldview holders who think independently in every way.

Key words. State, society, people, conflict, laws, conflict, struggle, conflicts, people, social, youth, causes and consequences, man.



Аннотация: В данной статье в основном говорится о социальном конфликте и последствиях социального конфликта, т.е. функциях. Авалло также рассказали о том, что представляет собой конфликт и как он определяется. Упоминалось также о конфликтах между людьми в истории. Какие проблемы возникают в результате взаимных конфликтов между людьми и приведены примеры этого. Затронуты социальные конфликты, их причины и последствия, поставив их в центр духовно-просветительской работы, проводимой сегодня в нашей стране, подняв их на новый уровень, заговорили также о необходимости поднятия наших поколений. Быть зрелыми носителями мировоззрения, мыслящими независимо во всех отношениях.

Ключевые слова. Государство, общество, народ, конфликт, законы, конфликт, борьба, конфликты, народ, социальное, молодежь, причины и последствия, человек.

KIRISH.

Farovon hayot - mukammal tarbiyadan boshlanadi. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. «Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi» deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Hozirgi qaltis davrda tarbiya mukammal bo'lishi uchun bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi» - deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.¹

Biz bu maqolani boshlashdan oldin avvalo konflikt so'ziga to'xtaladigan bo'lsak:

Konflikt (lot. conflictus — ixtilof, to'qnashish) — 1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvi; 2) adabiyot va san'atda — badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat, personajlarning o'zaro to'qnashishi, ixtilofi. Konflikt epik asarlarga nisbatan qo'llanadi, dedektiv romanlarda esa u kolliziya, kechinma, fikr oqimi tarzida namoyon bo'ladi. Konfliktning 3 xil ko'rinishi mavjud: asar qahramonlarining birbirlari bilan to'qnashuvi, kurashi; shartsharoit, muhit bilan to'qnashuv; o'z-o'zi bilan ichki kurash. Drama konfliktni harakatni rivojlantiruvchi, keskinlashtiruvchi xususiyatga ega. Konfliktda yozuvchining dunyoqarashi, voqelikni, hayotni, dunyoni va insonni qanday idrok etishi va tushinishi namoyon bo'ladi. Dramaturgiyada "tashqi" konfliktga keng o'rin beriladi, bunda qahramonlar o'zaro bir-biri bilan ixtilofda, kurashda bo'ladi, "ichki" konfliktda esa qahramonning o'z burchini his etishi bilan ojiz ruhiy tomoni, hissiy iztiroblari, holati o'rtasidagi ziddiyat tarzida ko'rinadi. Sho'rolar davrida — sotsialistik realizm metodi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlar ittifoqining IV qurultoyida so'zlagan nutqi, 2017 yil.



hukmronlik qilgan davrda konflikt zaminiga ijtimoiy-sinfiy antagonizm qo'yilgan va bu ziddiyatning inqilobiy yo'l bilan yechilishi talab qilingan, individual axloq bilan jamoa ongi o'rtasidagi, xususiy mulkchilik ruhiyati bilan jamoat, xalq manfaati o'rtasidagi kurash tarzida qo'yilgan. Sho'ro tuzumini tanqid qilish man etilgan va shu tufayli adabiyotda, ayniqsa dramaturgiyada Konflikt-sizlik "nazariya"si kelib chiqqan. Hayotdagi keskin ziddiyatlarni chetlab o'tish, voqelikni, hayotni bo'yab ko'rsatish, insonni shunchaki bir qo'g'irchoq, robot tarzida ko'rsatish bu davr adabiyotining bosh belgisi bo'lgan. Milliy mustaqillik tufayli o'zbek adabiyoti va san'atining ijodiy usuli realistik metod bo'lib qoldi, hayot va insonni haqqoniy tasvirlash, voqelikdagi ziddiyatlar kulami va mohiyatini teran ochish, inson va jamiyatning kamol topishidagi qiyinchiliklarni, murakkab jarayonlarni oqilona tasvirlash yagona mezonga aylandi. Ammo yozuvchi, san'atkor voqelikdagi ziddiyatlarni qanday bo'lsa, shundayligicha badiiy asarga ko'chirmaydi, aksincha, ularni tanlab oladi, umumlashtiradi, yanada keskinlashtiradi, ular ma'nosi, mohiyatini ochadi, tushuntiradi.²

Insonlar bir zayilda ketisholmaganlari kabi barcha insonlar orasida ham turli xil ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin ya'ni, ijtimoiy hayotimizdagi ziddiyatlar, insonlarning bir- birlarini tushinishmasliklari, insonlar jamiyatimizdagi yangiliklar va o'zgarishlar haqidagi o'zaro fikriy ziddiyatlar, yangi qaror farmoyishlar o'rtasida ham jamiyatimiz a'zolarida turli xil ziddiyatlar kelib chiqmoqda, bu ziddiyatlarni oldini olish bo'yicha ham juda ko'p soha vakillari ish olib borishmoqdalar.

Konfliktni tushunishga bo'lgan ikki xil yondashuv mavjud. Ulardan birinchisi konfliktni ancha keng – taraflar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvi deb ta'riflaydi. Bunday yondashuvga ko'ra konfliktlar jonsiz tabiatda ham yuz berishi mumkin. "Konflikt" va "ziddiyat" tushunchalari amalda hajmiga ko'ra qiyoslanuvchan bo'lib qoladilar. Ikkinchi yondashuv konfliktni opponetlar yoki o'zaro ta'sir sub'ektlarining bir-biriga zid (teskari) yo'llangan maqsadlari, manfaatlari, pozitsiyalari, fikrlari yoki qarashlari ning to'qnashuvi deb tushuniladi.³

Ijtimoiy konfliktlarga va uning ortidan paydo bo'ladigan sabab va oqibatlariga ham to'xtalib o'tamiz.

Ijtimoiy (sotsial) konflikt – bu:

1)Ochiq qarama-qarshilik, ikki yo undan ortiq sub'ektlar – sotsial o'zaro ta'sir ishtirokchilarining to'qnashuvi bo'lib, buning sabablari sotsial konflikt ishtirokchilarining o'zaro zid manfaatlari va qadriyatlaridir;

² O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

³ Karina V. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013.



2) sotsial ziddiyatlarning o‘ta keskinlashgan holati, turli sotsial birliklar – sinflar, millatlar, davlatlar, turli sotsial guruhlar, sotsial institut kabilar manfaatlarining ular manfaatlari, maqsadlari, taraqqiyot tendensiyalarining qarama-qarshiligi yoki jiddiy farq qilishi tufayli kelib chiqadi;

3) sotsial sub’ektlarning ob’ektiv ravishda farqlangan manfaatlari, maqsadlari, taraqqiyot tendensiyalarining ochiq-oydin yoki yashirin kurashi, to‘qnash kelishi, sotsial kuchlarning mavjud ijtimoiy tartibga qarshilik ko‘rsatish asnosida bevosita yoki bilvosita to‘qnashuvi, yangi sotsial birdamlikka tomon tarixiy intilishning alohida shakli;

4) konfliktli o‘zaro ta’sir sub’ektlari o‘zaro zid bo‘lgan yoki bir-birini istisno etadigan qandaydir o‘z maqsadlarini ko‘zlagan vaziyat.

Ijtimoiy konfliktlar konfliktologiyaning markaziy ob’ekti ya’ni yadrosi hisoblanib, u esa shaxslararo konfliktlar hisoblanadi.

Ijtimoiy (sotsial) konflikt sabablari:

- 1) moddiy resurslar;
- 2) o‘ta muhim hayotiy ko‘rsatma(ustanovka)lar;
- 3) hokimiyat vakolatlari;
- 4) ijtimoiy (sotsial) tuzilmadagi maqom-vazifaga oid farqlar;
- 5) shaxsga doir (emotsional-psixologik) farqlar va h.k.

Konflikt sotsial (ijtimoiy) o‘zaro ta’sir(harakat)ning turlari sifatida, uning sub’ektlari va ishtirokchilari bo‘lib alohida individlar, katta va kichik sotsial guruhlar va tashkilotlar keladilar.

Konfliktli qarama-qarshilik – tomonlarning o‘zaro kurashi, ya’ni bir-biriga qarshi qaratilgan harakatlaridir.

Sotsial konflikt asosida faqat sabablari o‘zaro tubdan zid bo‘lgan manfaat, ehtiyoj va qadriyatlar bo‘lgan ziddiyatlar yotadi; bu kabi ziddiyatlar tomonlarning ochiqdan-ochiq kurashi, real qarama-qarshilikka o‘tib ketadi.

Konfliktda to‘qnashuvlarning kuch ishlatiladigan va kuch ishlatilmay digan shakllari mavjud.

Sotsial konflikt o‘z ichiga raqib faoliyatini to‘siq bo‘layotgan yoki boshqa odam(guruh)larga zarar yetkazayotgan individ yoki guruh faolligini oladi.

Konfliktlar problematikasi sohasida quyidagi atamalar qo‘llanadi: “bahs”, “munozara”, “savdolashuv, tortishuv”, “raqobatchilik va nazorat qilinadigan to‘qnashuvlar”, “bilvosita va bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) zo‘ravonlik”.⁴

⁴ “PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA”
fanidan O‘QUV – USLUBIY majmua. Namangan.2023



Har bir sohada duch bo'lganidek ijtimoiy sohalardagi konfliktlarni oldini olish va ular insonlar ongiga nojo'ya ta'sir qilmasligi uchun ham biz ijtimoiy ishchilar hamda boshqa soha vakillari ham jamiyatdagi ijtimoiy konfliktlarni oldini olishlari zarur. Bu kabi konfliktlar insonlarga turli xil yoshda turli xil ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sog'ligiga, psixologiyasiga va boshqa shaklda ta'sir ko'rsatishi mumkin va oqibatlarini yomon bo'lishi ham mumkin.

XULOSA

Insoniyat taraqqiyoti tarixi turli, ayni paytda, o'ziga xos manfaatli munosabatlarga ega, shaklan mazmunan bir-birini takrorlamaydigan shaxs, guruh, qatlamlar hamda voqea-hodisalarga har xil yondashuvlarning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Turfa madaniyat va yondashuvlar ijtimoiy hayotning rivojlanishining oqilona asoslari paydo bo'lishiga, taraqqiyot qonuniyatining nazariy va amaliy mezonlari shakllanishiga xizmat qilishi bilan birga inson va jamiyat hayotida turli ijtimoiy xatarlar, tanazzullar, murosasizlikning, toqatsizlikning betakror shakllarining namoyon bo'lishiga olib keladi. Shu bois konfliktlarning namoyon bo'lish shakllari va turlarini o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagicha: konfliktlarning ob'ekti, maqsadi, oqibatlarini hamda yo'nalganligi, ularning namoyon bo'lish sabab-oqibatlarini, to'satdan, kutilmaganda sodir bo'lish vaqtiga, davomiyligi va keskinlik darajasiga, nizolar kelib chiqishi va uning ishtirokchilariga ko'ra, ijtimoiy hayotning tashkil etilganlik darajasiga hamda vaziyatni sub'ektiv idrok etishni hisobga olgan holdagi va boshqa turlariga ajratish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lini tanladi. Dunyoviy davlatchilik asoslarining bosh tamoyillaridan biri esa tolerantlik hisoblanadi. Shu bois XXI asr takomilini tolerantlik tafakkurisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tolerantlik tafakkuri millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning barchasining o'zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, tenglik va o'zaro hurmat asosida yashash jarayonlarini anglatadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish yosh



avlodlarimizni har tomonlama mustaqil fikrleydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat”, - deb ta’kidlagan.⁵ Yana mamlakatimizda insonlar o`rtasidagi va davlat va jamiyatimizda olib borilgan turli siyosiy jarayonlardagi ziddiyatlarni oldini olish maqsadida turli ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Karina V. Korostelina and Simone Lassig. History Education and Post-Conflict Reconciliation. USA Canada. Routledge, 2013
3. “PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA” fanidan O‘ Q U V – U S L U B I Y majmua. Namangan.2023
4. I. A. Karimov, “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”
5. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA TOSHKENT «DONISHM AND ZIYOSI» 2020
6. O ‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O ‘zbekiston yoshlilar ittifoqining IV qurultoyida so‘zlagan nutqi, 2017 yil.

⁵ I. A. Karimov, “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”



ZAMONAVIY JAMIYATDA SOTSILOGIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY ASOSLARI VA METODLAR

Mustafoqulova Marjona To'lg'in qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-kurs talabasi

Sabirova Surayyo Farxod qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy raxbar: *Abbosova Maftuna Subxonovna*

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi, P.H.D

E-mail: maftuna08011993@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi jamiyatimizda keng tarqalgan ijtimoiy munosabatlar, muammolar va ularning hal etilishida sotsiologiyaning o'rni haqida fikr yuritilgan. Qolaversa, jahon hamjamiyatida sotsiologlarga bo'lgan talab hamda bu kasbga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish, mijoz, ijtimoiy xodim, ma'naviyat, jamiyat, sotsiologiya, nazariya, sotsiologik tadqiqot, ijtimoiy jarayonlar, O.Kont, G.Spenser, M.Veber, E.Dyurkgeym

Abstract: In this article, encouraging the client to have an open conversation, understanding the unclear and controversial situations in his situations and finding a solution to them. Establishing openness and sincerity in communication with the client. They cover the issues of forming skills in independent decisionmaking and encouraging them to achieve their goals.

Key words: social work, client, social worker, provision of social services, event management, community spirituality.

KIRISH

O'z mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash dolzarb va ustuvor vazifalardan biri. Hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning rivoji yoshlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda qaror topgan.



Ijtimoiy ish xodimlarining muloqot malakalar.

Insonning tom ma'nodagi ijtimoiy qiyofasi uning Ijtimoiy me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirishi, egallashi hamda unga amal qilishi bilan belgilanadi ¹. Ijtimoiy hayotda konfliktlarning tutgan o'rni va keng tarqalganligi uzoq o'tmishda ham e'tiborni o'ziga tortgan. O'tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar, yozuvchilarning asarlarida, afsonalarida va g'oyalarida vujudga kelishi ehtimol bo'lgan konfliktlarning yuzaga kelish sabablari va ularni tugatish yo'llari haqida muayyan fikrlar bildirilgan. Avvalo insoning inson bilan, qo'shning qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashi, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishini anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi. O'tmishda konfliktlarni hal etishning asosiy usuli sifatida urug'-qabila oqsoqollar, dohiylarning yakka hokimligi tushunilgan, ba'zida ijtimoiy notenglikni keskinlashtirgan, konfliktlarni yaqqol namoyon etgan va kuchaytirgan. Shu bois asrlar davomida insonlar urushlar bo'lmaydigan, nizolar va adovat barham topadigan mukammal kelajakka ishonch hissi bilan yashaganlar. Mijozlarga xizmat ko'rsatish va ularga berilgan va'dalarni o'z vaqtida yoki hatto undan oldin bajarish muhimdir. Kamroq va'dalar va ko'proq amallar qilish uchun so'rovni qaysi vaqt oralig'ida bajarish kerakligini aniqlang. Mijoz bilan muloqot jarayonida avvalo uning ishonchini qozonish zarur bo'ladi. Mijoz bilan muloqot qilishni boshlaganingizda, uning malakalaka darajasini tushunishingiz kerak. Uni qanchalik tez aniqlasangiz, suhbatingiz shunchalik foydali bo'ladi. Agar mijoz nima haqida gapirayotganingizni tushunmasa, murakkab iboralarni ishlatishning hojati yo'q. Mijoz bilan muloqot jarayonida siz muammolarni hal etishga qaratishingiz ishning samarasini ortishiga sabab bo'lib, jarayonning yanada yaxshilanishiga olib keladi. Kommunikatsiyalar sotsiologiyasi. Madaniyat sotsiologiyasi, Tibbiyot sotsiologiyasi, Yoshlar sotsiologiyasi, Fan sotsiologiyasi, Ilmiy bilim sotsiologiyasi, Ta'lim sotsiologiyasi, Tashkilotlar sotsiologiyasi, Siyosat sotsiologiyasi, Huquq sotsiologiyasi, Psixiatriya sotsiologiyasi, Din sotsiologiyasi, Oila sotsiologiyasi, Mehnat sotsiologiyasi, Boshqaruv sotsiologiyasi, Hissiyotlar sotsiologiyasi, Iqtisodiy sotsiologiya, Ekosotsiologiya, Etnosotsiologiya, Ijtimoiy sotsiologiya. Sotsiologiya – insonning ijtimoiy turmushini o'rganish, guruh va jamiyatlarni o'rganishdir. Bu yorqin va butun vujudni qamrab oladigan mashg'ulot bo'lib, ijtimoiy mavjudot bo'lgan odamlarning xulq-atvori- uning predmetidir. Sotsiologiya nisbatan yangi fan bo'lib, u nafaqat yangi zamonaviy jamiyatni o'rganadi, balki o'tgan zamon jamiyati bilan taqqoslash va uni rivojlantirish masalalarini ham



o'rganadi. Sotsiologiya fani inson hatti harakatlarini yaqqol tushunish yo'llarini ko'rsatib beradi. Inson hatti harakati, hulq atvori jamiyat taraqqiyotini ko'rsatib berar ekan bu borada Prezidentimiz "Ma'naviyat — insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir - deb ta'kidlagan. Sotsiologiya sosietas, logos (lotincha sosietas – jamiyat va yunoncha logos – ta'limot) – so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. Bu termini fransuz faylasufi Ogyust Kont XIX asrning 30 yillarida ilmiy muomalaga kiritgan. Sotsiologiya fani to'g'risida bir qator olimlarning fikrlariga e'tibor qaratamiz: Ogyust Kont fan asoschisi deb bilamiz, lekin, bir kishi butun bir fanga asos sola olmaydi, sotsiologiyaning rivojlanishiga ko'pgina kishilar o'z hissasini qo'shgan. O.Kont sotsiologiya fanini yosh, lekin ahamiyatiga ko'ra eng murakkab va eng muhim fan hisoblarda. Kont fikricha, yangi fan insoniyat baxt- saodatga erishuviga to'g'ridan- to'g'ri ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlagan. Yana bir fransuz sotsiologi Emi Dyurkgeymning fikricha, sotsiologiya fanga aflinishi uchun, "sotsial faktlarni" o'rganishi, "sotsial faktlarni buyumlar kabi o'rganish lozim" deb jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni alohida empirik tarzda o'rganishni ilgari surgan. Kzzga ko'ringan buyuk sotsiologlardan biri Maks Veber sotsiologiya fani to'g'risida gapirar ekan, uni shunday tushuntirgan; "...tabiy olamni tadqiq etishda qo'llaniladigan tartiblardan foydalangan holda, insonlar hayotini ham o'rgana olishimiz mumkin, deb o'ylash unchalik ham to'g'ri emasdir. Inson- fikrolvchi va mulohaza yurituvchi mavjudotdir; biz qilayotgan ishlarimizga ko'proq ma'no va ahamiyat beramiz va inson hulq- atvori bilan shug'ullanadigan har qanday fan, bu omilni albatta hisobga olishi lozim." deb tushuntirgan. Aniqroq qilib aytganda u yaxlit tizim sifatidagi jamiyat, alohida institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan jarayonlarni o'rganuvchi fan. Uning tushunishicha sotsiologiya jamiyatga taalluqli bo'lgan hamma narsalarni o'z ichiga olgan jamiyatshunoslik bilan bir qatorda turgan. Sotsiologiya – insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning tarkibiy qismidir. U XVIII asrda kishilik jamiyati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida tarix falsafasida shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi. Ma'lumki falsafiy bilimlar doirasi juda keng bo'lib, ularning tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

- 1) **Ontologiya – borliq haqidagi qarashlar.**
- 2) **Sotsiologiya – jamiyat haqidagi qarashlar.**
- 3) **Gnoseologiya – borliqni bilish muammolari.**



- 4) **Logika – inson tafakkuri qonunlari haqidagi qarashlar tizimlari.**
- 5) **Etika – axloqiylik haqidagi qarashlar.**
- 6) **Estetika – go‘zallik haqidagi qarashlar.**

Demak, biz falsafiy bilimlar doirasidan kelib chiqib, sotsiologiya fani va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganamiz. Sotsiologiya XIX asr boshlaridan boshlab o‘ziga xos ilmiy metodlar asosida falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo‘la boshladi. Shunga ko‘ra sotsial sistemaning taraqqiyoti va faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlari haqidagi mustaqil fan sifatida XIX asr 30-yillarida ilmiy muomalaga «Sotsiologiya» atamasi, so‘zi kiritilgandan so‘ng shakllandi. Jamiyat haqidagi «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o‘rtalarida yuzaga keldi. Sotsiologiyaning asoschisi fransuz mutafakkiri O.Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi. Uning vatandoshi E. Dyurkgeym sotsiologiyaning predmetini sotsial dalillar haqidagi fan deb ataydi. Marksizmda sotsiologiyaning predmeti ijtimoiy tizim sifatida jamiyat va uning tuzilmaviy elementlarini tashkil etgan shaxslar, ijtimoiy birliklar, ijtimoiy institutlarni ilmiy asosda o‘rganish hisoblanadi. Hozirgi kundagi adabiyotlarda sotsiologiyaga quyidagicha ta’rif berilgan:

Xulosa:

Sotsiologiya - yaxlit ijtimoiy tuzum sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari (shaxslar, ijtimoiy birliklar, institutlar) orqali bu tuzumning amal qilishi va rivojlanishini o‘rganuvchi fandır. Sotsiologiya ob’ekti jamiyat hisoblansada, lekin sotsiologiya predmetining dastlabki bosqichi sifatida jamiyat tushunchasini ajratib ko‘rsatish yetarli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov M., Sulstonov T., Kadirova X.B. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2015..
2. Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent, 2002
3. Kravchenko A.I. Sotsiologiya. – M., 2006.
4. Latipova N.M. Politicheskaya sotsiologiya. Metodicheskoe posobie. – Tashkent., 2010.



**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY SOHANI RIVOJLANTIRISH
BO‘YICHA OLIV BORILAYOTGAN ISLOHATLAR**

REFORMS IN UZBEKISTAN FOR THE DEVELOPMENT OF
THE SOCIAL SECTOR

РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ
СОЦИАЛЬНОЙ СЕКТОРА

Maxmudova Gulnora

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Ijtimoiy ish
ta‘lim yo‘nalishi talabasi; e-mail: maxmudovagulnora93@gmail.com*

Ilmiy raxbar: Abbosova Maftuna Subxonovna

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi, P.H.D

E-mail: maftuna08011993@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ijtimoiy sohani rivojlantirib boorish maqsadida qilinayotgan ishlar va islohatlar haqida ma`lumotlar berilgan. ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo`naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarning turmush darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor berilganligi haqida, xususan, unda ijtimoiy sohadagi davlatning majburiyatlari bilan bog‘liq normalar qariyb 3 barobarga ko‘paydi, va boshqa yo‘nalishlardagi islohatlar bo‘yicha ma`lumotlar qisqacha berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, insonlar, milliy g‘oya, ijtimoiy soha, siyosiy faollik, infratuzilma, bandlik, ta‘lim, madaniyat, inson qadri, ijtimoiy himoya, yoshlar, ayollar.

Abstract: This article provides information about the works and reforms that are currently being carried out in order to develop and enrich the social sphere. to consistently increase employment and real incomes of the population aimed at the development of the social sphere, to further increase the well-being of our people based on the principle of "for the value of man", to unconditionally ensure human rights and interests, to further improve the living standards and quality of persons with disabilities, about providing them with medical and social assistance, improving the system of social protection and health care, that special attention is paid to the social support of the population in the newly revised Constitution, in particular, it is related to the obligations



of the state in the social sphere The norms have increased by almost 3 times, and the information on the reforms in other directions is briefly given.

Key words: Society, people, national idea, social sphere, political activity, infrastructure, employment, education, culture, human value, social protection, youth, women.

Аннотация: В данной статье представлена информация о работах и реформах, которые проводятся в настоящее время в целях развития и обогащения социальной сферы. последовательно повышать занятость и реальные доходы населения, направленные на развитие социальной сферы, дальнейшее повышение благосостояния нашего народа на основе принципа «на благо человека», безусловно обеспечивать права и интересы человека, в целях дальнейшего повышения уровня и качества жизни лиц с ограниченными возможностями, об оказании им медицинской и социальной помощи, совершенствовании системы социальной защиты и здравоохранения, в новой редакции Конституции особое внимание уделено социальной поддержке населения, в частности, это касается обязательств государства в социальной сфере. Нормы увеличены почти в 3 раза, кратко дана информация о реформах по другим направлениям.

Ключевые слова: Общество, народ, национальная идея, социальная сфера, политическая деятельность, инфраструктура, занятость, образование, культура, человеческие ценности, социальная защита, молодежь, женщины.

KIRISH

Mamlakatimizda hozirgi kunda turli sohalarda shu jumladan ijtimoiy sohaga bo'lgan e'tabor ham keskin kuchaymoqda. Jamiyati izdagi ijtimoiy qatlamni hayotini yaxshilash borasida bir qancha islohatlar ishlab chiqilmoqda. Jamiyatning ijtimoiy hayot sohasini jamiyatning tizimli ravishda tashkil etilgan qismi sifatida tavsiflash mumkin, bunda odamlarning tarixiy va ijtimoiy guruhlarining ularning ijtimoiy mavqei, jamiyat hayotidagi o'rni va roli to'g'risida o'zaro ta'sir o'tkazadilar. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: sinflar va ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, millatlar va millatlarning manfaatlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar, mehnat va yashash sharoitlari, sog'liq va bo'sh vaqt. Jamiyatning ijtimoiy hayoti sohasi - bu nisbatan mustaqil, ajralmas quyi tizim bo'lib, u odamlarning muayyan ijtimoiy hamjamiyatlar a'zosi sifatida faoliyati va ularning jamiyatdagi mavqeining tengligi va tengsizligi nuqtai nazaridan ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar bilan tavsiflanadi. Jamiyatning boshqa sohalari qatorida ijtimoiy hayot sohasining muhim roli ijtimoiy faoliyat va munosabatlarda turli ijtimoiy jamoalarning hayotiy vaziyatida tenglik yoki tengsizlik o'lchovi amalga



oshirilayotganligi bilan belgilanadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirish darajasida aks etadi. Shu sababli ijtimoiy hayot sohasini yanada rivojlantirish - chuqur o'zgarish yo'liga qadam qo'ygan jamiyatimizni takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biridir.

ASOSIY QISM

So'nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamini va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida yana bir islohatlardan biri bu aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023 yildagi PF-82-son Farmoni ishlab chiqildi.

Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YIMga nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barabarga ko'paydi hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolalarning parvarishi bilan band bo'lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.¹

Aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berib kelmoqda. Aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

"Aholi turmush darajasi" tushunchasi juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uni tavsiflash uchun biror indikatorni tanlash qiyin, shuning uchun bu atamaning turli jihatlarini tavsiflaydigan bir qator statistik ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi. Bugungi kunda aholining turli guruhlari manfaatlari hisobga olinmoqda, ish bilan bandlikning samarali tizimi va ish haqi to'lash tizimi, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish orqali har bir insonga munosib hayot bilan ta'minlanmoqda. So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son



oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to`g`ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o`sb borganini yaqqol namoyon bo`lmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish – bu davlatning bevosita aniq maqsadli, aholining normal yashash sharoitlarini ta'minlovchi kafolatlar tizimidir. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, keksalikni, mehnatga layoqatligini yoki boquvchisini yo'qotishni sug'urtalash (pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalar uchun nafaqalar), vaqtinchalik ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik nafaqalari), moddiy ta'minlanganligi va xizmatlarini hisobga olgan holda aholining ayrim toifalari uchun imtiyoz va qulayliklar (patronaj xizmatlari ko'rsatish, mahsulot, dori-darmonlarni etkazib berish va h.) berish, onalikni himoya qilish (tug'ruqgacha va tug'ruqdan keyingi mehnat ta'tillari), salomatlikni sug'urtalash (vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqalari), ta'lim olayotgan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash (stipendiyalar), nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash (nogironlarni rehabilitatsiya qilish, protezortopedik markazlar) tizimi orqali ta'minlanadi.²

Davlat qonunlar va qonunosti hujjatlar tizimi orqali aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini tartibga soladi, eng kam yashash minimumini aniqlaydi va undan kelib chiqqan holda, eng kam oylik ish haqi, ijtimoiy to'lovlar, sug'urta mukofotlari va ijtimoiy yordam (imtiyozlar) turlarini belgilaydi, ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etuvchi xizmat (idora) larning faoliyatini muvofiqlashtiradi. Shu bilan birga, aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini tartibga solish bo'yicha davlatning eng samarali roli aholini kasbiy tayyorgarlikka, qayta tayyorlash va malaka darajasini oshirishga ko'maklashish uchun aholiga, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarga qo'shimcha ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirishdan iborat. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish ya'ni uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishni ko'zda tutadi.

O'tgan davrda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslarning turmush darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha jiddiy qadamlar tashlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilgan. Xususan, unda ijtimoiy sohadagi davlatning majburiyatlari bilan

² lex.uz



bog'liq normalar qariyb 3 barobarga ko'paydi. Aholining bepul va zarur tibbiy xizmatlarning kafolatlangan hajmidan foydalanishi huquqlari kiritildi.³

Bosh qomusimizda mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilangani ushbu sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak harakatlar strategiyasining "ijtimoiy sohani rivojnantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi badligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik kommunikatsiya hamda ijtimoiy ijtimoiy infra tuzulmani rivojlantirish va modernizatsiyalash va aholini elektr energiya gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'ratiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish hamda Mamlakat iqtisodiyotining transformatsiyasi xo'jalik tarmoqlari bo'yicha ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishiga olib keladi. Bu o'rinda yangi hodisalargagina emas, balki ish bilan to'liq bandlikka, xodimlarning tarmoqlar va sohalar bo'yicha rejali taqsimlanishiga asoslangan oldingi munosabatlar buzilishiga duch kelinadi. Mana shu nuqtai nazardan ish bilan bandlik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish birinchi darajali nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, ushbu muammoni tadqiq etishning dolzarbligi aholini ish bilan ta'minlash tarkibini takomillashtirishning nazariy, metodologik va amaliy bazasini ishlab chiqish tugallanmaganligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda inson qadrini ulug'lash, fuqarolarning mehnat qilish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun yaratilayotgan sharoitlar, berilayotgan imtiyozlar yuqori natija berayotganini ko'rib, sezib turibmiz. Shu bilan birga, so'nggi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Inson huquqlari demokratik-huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Oxirgi yetti yilda yurtimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning manzilli ijtimoiy muxofazasini kuchaytirish, uy-joy-maishiy va boshqa yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi va bu boradagi ishlar izchil davom etmoqda.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023



Bir soʻz bilan aytganda, aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi hamma vaqt dolzarb boʻlib kelgan. Yurtimizda kam taʼminlangan oilalar, ayollar, yoshlar, keksalar, shuningdek, nogironligi boʻlgan shaxslarga har tomonlama yordam koʻrsatilayotgani mamlakatimizda har inson davlatning eʼtiborida, himoyasida ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:Oʻzbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. /1-jild/ –T.: Oʻzbekiston NMIU, 2017. 592-b.
3. AHOLIGA SIFATLI IJTIMOIIY XIZMAT VA YORDAM KOʻRSATISH HAMDA UNING SAMARALI NAZORAT TIZIMINI YOʻLGA QOʻYISH BOʻYICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR TOʻGʻRISIDAGI Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son
4. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy taʼlim muassalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF- 4947-son Farmoni. // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.
7. lex.uz



JISMONIY VA AQLIY NOSOG`LOM BOLALARNI MOSLASHUV MARKAZLARIGA JOYLASHTIRISH

Maxmudova Gulnora Maxmasodiq qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali

Ijtimoiy ish yo`nalishi 3-kurs talabasi

Maxmudovagulnora93@gmail.com

Mustafoqulova Marjona To`lqin qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali

Ijtimoiy ish yo`nalishi 3-kurs talabasi

*Ilmiy raxbar: **Abbosova Maftuna Subxonovna***

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasida o`qituvchisi, P.H.D

E-mail: maftuna08011993@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy va aqliy nosog`lomligi bo`lgan bolalarni moslashuv markazlariga joylashtirish borasidagi masalalar, shuningdek, bolaning moslashuvi va nogironligi bo`lgan bolalar uchun moslashuv markazlarining umumiy ko`rinishlari, bundan tashqari, nogiron bolalarni moslashuv markazlariga joylashtirishning huquqiy asoslari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: jamiyat, yoshlar, nogironlik, ijtimoiylashuv, bola, moslashuv.

Kirish:

Ma`lumki, jamiyatimizda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish eng avvalo huquqiy tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizimga umumiy ta`lim maktablari va oliy o`quv yurtlarida "Davlat va huquq asoslari", "Inson huquqlari" o`quv kurslarini o`qitish bilan bir qatorda ommaviy axbarot vositalari orqali huquqni targ`ib qilish, davlat va jamoat tashkilotlarining bu sohasidagi faoliyatini yoritish kabi bir qator boshqa tashkiliy shakl va vositalarni kiritish mumkin. SHuningdek, ommaviy axborot vositalari ham huquqiy bilimlarni keng yoyishda muayyan ahamiyatga ega.

Asosiy qism:

Bugungi kunda yurtimizda 18 yoshgacha bo`lgan nogiron bolalar soni 130 mingga yaqin kishini tashkil etadi. Respublikamizda, imkoniyati cheklangan bolalar o`qiydigan maxsus ta`lim muassasalarini rivojlantirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Rahm-shafqat aktlari va muhtojlarni maqsadli qo`llab-quvvatlash mamlakat hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bundan tashqari, oila, ayollar, bolalar, yoshlar, qariyalar va nogironlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, barcha Prezident farmonlarini o`z



ichiga olgan dasturiy tavsifga ega huquqiy-me'yoriy hujjatlar mavjud. O'zbekiston bolalar, alohida ehtiyojlarga muhtoj shaxslar huquq va erkinliklari sohasidagi asosiy xalqaro shartnomalar, akdlar, deklarasiyalar, konvensiyalarga qo'shildi va ular bilan hamkorlikda Davlat siyosatini amalga oshirmoqda.

Davlatimiz nogironligi bo'lgan bolalarni hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga moddiy yordam, maslahat yordami va boshqa yordam ko'rsatadi hamda ularni qo'llab-quvvatlaydi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola to'g'risida g'amxo'rlik qilishda imtiyozli huquq bu vazifani bajarishga qodir bo'lgan qarindoshlariga beriladi. Bolani oilaga joylashtirishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda, uni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish oxirgi chora hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuv markazlari-aqliy, jismoniy, ruhiy jihatdan noqis bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatadigan markaz hisoblanadi. Respublikamizda alohida ehtiyojli bolalar bilan korreksion talimiy-tarbiyaviy rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, ijtimoiy jamiyatga erta moslashtirish, imkoniyatlaridan foydalanib o'z-o'ziga xizmat qila oladigan qilib voyaga yetkazish bugungi kunning dolzab masalalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda Respublikamizda 87 ta maxsus maktab va maktab-internatlar mavjud bo'lib, ushbu ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ammo ko'plab sabablarga ko'ra ayrim imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibda o'qishmoqda yoki ayrimlari esa batamom ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar.

Bugungi kundagi eng muhim masalalardan yana biri yoshlarni pok qalbini har-xil unsur aqidalardan asrash, ularning zararli g'oyalaridan yiroq qilishdir. Qachonki, bolaning huquqiy tarbiyasi to'g'ri yo'naltirilsa, vatani haqida ongli mushohada qilishiga zamin yaratilsagina, yoshlar har qanday yot g'oyalar ta'sirini chetlab o'tishga qodir bo'ladilar.¹

Bola ijtimoiylashuvi- uni ijtimoiy hayotga tortish jarayonidir. U mazkur jamiyatga xos bo'lgan bilim, qadriyatlar, o'zini tutish namunalari tizimini o'zlashtirishda mujassamlashgan.

Bolaning ijtimoiy moslashuvi- uni ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga faol moslashuvi jarayoni, bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri turi.

¹M.S.Abbosova. Ijtimoiy moslashuv markazlarida ijtimoiy ish. O'quv qo'llanma. Kattaqo'rg'on-2024.



Nogiron bolalar uchun moslashish markazlarining umumiy ko'rinishi:

1. Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni moslashish markazlariga joylashtirish ularning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun maxsus parvarish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

2. Ushbu markazlar nogiron bolalar uchun turli sohalarda o'z ko'nikmalarini rivojlantirish va rivojlantirish uchun xavfsiz va inklyuziv muhitni taklif etadi.

3. Har tomonlama rivojlanish va individuallashtirilgan parvarish rejalariga e'tibor qaratgan holda, moslashuv markazlari nogiron bolalar uchun hayot sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni moslashish markazlariga joylashtirishda qiyinchiliklar mavjud ular:

- Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni moslashish markazlariga joylashtirish ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Muhim muammolardan biri jismoniy nogiron bolalarni o'ziga xos ehtiyojlari va talablari tufayli joylashtirishdagi qiyinchilikdir.

- Moslashuv markazlarida jismoniy nogiron bolalarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun zarur resurslar va jihozlar yetishmasligi mumkin. Bu ularning rivojlanishi va farovonligiga to'sqinlik qiladigan etarli darajada g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlashga olib kelishi mumkin.

